**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**MADANIYAT VAZIRLIGI**
**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**ALLANBOYEV RUDAKIY**

# VOKAL

*5111000-Kasb ta’limi (5151600-Xalq ijodiyoti (Vokal ijrochiligi)*
*5150300 – Aktyorlik san’ati (Musiqali teatr aktyorligi)*
*ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun*
*o‘quv qo‘llanma*

Toshkent 2018

*Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘quv-uslubiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (Bayonnoma № __, _____________2018)*

***Muharrir:***
SHERZOD PIRMATOV – O‘zbekiston davlat San’at va madaniyat instituti professori

***Taqrizchilar:***

RUSTAM ABDULLAYEV – O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, O‘zbekiston Kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi, professor.

BAXRULLO LUTFULLAYEV – O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, O‘zbekiston Kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a’zosi, O‘zDSMI professori

Oliy o‘quv yurtlarida tahsil oluvchi talabalarga “Vokal (yakka qo‘shiqchilik san’ati)” sir-asrorlarini atroflicha o‘rgatishga oid barcha nazariy va amaliy ma’lumotlar ko‘p yillik tajribadan kelib chiqib bayon etilgan. Kuylash uchun taqdim etilgan O‘zbekiston kompozitorlari asarlaridan namunalarga annotatsiya, uslubiy ko‘rsatmalar ham o‘rin olgan. Kuylashda muhim bo‘lgan nafas olish qoidalariga ham keng o‘rin berilgan. Undan ushbu soha ustoz-o‘qituvchilari, talaba-yoshlar birdek foydalanishlari mumkin.

В учебном пособии 5150300 «Вокал» изложены теоретические и практические сведения, содержащие авторские приемы обучения «Вокалу (искусство пения соло)» для студентов высших учебных заведений. А также представлена аннотаsия и методические указания по исполнению предложенных для исполнения произведений композиторов Узбекистана. Широко представлены правила постановки голоса и освоение дыхания для правильного пения. Им могут одинаково пользоваться преподаватели-наставники этой сферы и учащиеся-студенты.

This training manual on the subject "Vocal Performance" ("Solo Performing Arts") is intended for students of the direction 5150300 -"Actor's Art". The vocabulary about knowledge and the secrets of perfoming have been described in many different ways by theoretic and practic information. As a result of the celebrations, Uzbek composers have also demonstrated their abilities for the design, style, and style of work. It's important to take a break from the rules. From this point of view, we can give the opportunity to share the podcasts, students, and colleagues.

# KIRISH

Mamlakatimiz musiqa san’atini yangicha asoslarga tayangan holda rivojlantirish vazifalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15- fevraldagi PF-4956-sonli “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20-apreldagi PQ-4968-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar, O‘zbekiston ijodkor ziyolilari bilan bo‘lgan uchrashuvda so‘zlagan ma’ruzasida bu boradagi vazifalar yanada aniq-ravshan belgilanib, madaniyat, adabiyot va san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha muhim taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

Bugungi kunda davlat ta’lim standartlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ushbu o‘quv qo‘llanma ham ana shu ehtiyojining hosilasi sifatida tayyorlandi. O‘quv qo‘llanma “Vokal” fan dasturi asosida ishlab chiqilib, ishchi o‘quv dasturiga asoslangan.

“Vokal” fani oliy kasbiy fanlarning asosiy fanlaridan biri bo‘lib, unda qo‘shiqchilik asoslari va uslubiyoti o‘qitiladi. Bo‘lajak professional oliy ma’lumotli xonanda-mutaxassislar mazkur fanda xonandalik uslubiyotining eng muhim masalalari bo‘yicha nazariy bilimlarni va amaliy tajribalarni o‘zlashtiradilar.

Vokal mutaxassislik fanining asosiy maqsadi - talabalarga Vokal xonandaligi bo‘yicha zamon talabiga javob beradigan, har tomonlama keng bilimga ega bo‘lgan, mustaqil fikr yuritadigan yuqori malakali ijrochi va havaskor to‘garak rahbarlari, o‘qituvchi-mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Unda zamonaviy keng dunyoqarashga ega, yangi ijro talqinlarini yaratishga moyil, badiiy jamoalarda yakkaxon xonanda sifatida ijodiy faoliyat olib borish, madaniyat va san’at ta’lim muassasalarida malakali xonanda-ijrochilarni tarbiyalashga o‘rgatishdan iborat. Fanning asosiy maqsadi bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarga xonandalik asoslari bo‘yicha bilim berishdan iborat.

Uning muhim vazifalarini quyidagilar tashkil qiladi:

- talabalarga xonandalikning asosiy xususiyatlari bo‘yicha nazariy bilim berish;
- talabalarni Vokal xonandaligi tarixi bilan tanishtirish;
- talabalarni xonandalikning asosiy ijro uslublari bilan qurollantirish;
- talabalarga xonandalikni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha metodologik tavsiyalar berish.

**O‘quv fanida qo‘yiladigan talablar**. Talabalarda yuqori badiiy did, kasbiy ijodiy iroda, mukammallikka intilish, zamonaviy ijro hissiyoti, keng dunyoqarash, jahon va o‘zbek durdona qo‘shiqlari, zamonaviy kompozitorlar asarlari bilan tanishtirishning nazariy va amaliy yo‘nalishlariga e’tibor qaratiladi.

Vokal fani boshqa ixtisoslik fanlar bilan uyg‘unlikda ansambl va orkestr jo‘rligida kuylash, nutq madaniyati, aktyorlik mahorati, ritmika, musiqiy nazariy fanlar bilan majmuaviy o‘rganilishi natijasida talabalar ovoz apparatining rivojlanishi, o‘z repertuari ustida ishlash, asarlarda badiiy mazmun va vokal texnik qiyinchiliklarni aniqlash, uni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganadi.

O‘zbek qo‘shiqchilik san’ati juda qadimiy va serqirraligi bilan Sharq xalqlari madaniyatida alohida ahamiyat kasb etib keladi. Qo‘shiqda xalq hayoti, kayfiyatining barcha ko‘rinishlari namoyon bo‘lib, unda xalq tafakkuri, dunyoqarashi, an’analari, urf-odatlari, o‘ziga xos hususiyatlari aks etadi. Bu san’at turini puxta egallash borasida tinmay mehnat qilish, izlanish, mashq qilishdan qochmaslik talab etiladi. Shuning uchun kasbiy mahoratni takomillashtirish uchun qancha vaqt va qanday mashq qilish lozimligi to‘g‘risida tajribali musiqachilar doimo bahslashib kelganlar. Bunda ular o‘z faoliyatlari davomida qo‘llangan turli usullar, maslahatlar, qiziqarli voqealarni kuzatish mumkin. Har kungi mashg‘ulotlarning eng muhim qismi asarni ijro etishga tayyor bo‘lish uchun ma’lum mashqlarni bajarishdir. Bu mashqlar nafaqat ijro jarayonida qatnashuvchi mushaklarni, balki avvalo musiqachining yaxlit psixik apparatini intensiv ish faoliyatiga tayyorlashni o‘z ichiga qamrab oladi.

Mazkur fanni o‘zlashtirishda ta’limning zamonaviy metodlari - xususan, interfaol pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari ijodiy o‘quv jarayonida unumli qo‘llaniladi. Axborot-resurs markazlari, kompyuterlar, “Internet”, “Ziyonet” kabi

axborot  resurs tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish, maxsus o‘quv adabiyotlari: darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, metodik tavsiyalar, ma’ruza matnlari, elektron materiallar, glossariy, musiqiy kompyuter dasturlari, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

# I. BOB. NAZARIY QISM.

## 1.1. ASHULACHILIKNING XILMA-XIL TURLARINI RIVOJLANTIRISH

O‘zbek milliy musiqa madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lmish qo‘shiqchilik san’ati uzoq o‘tmishdan va asrlar qa’ridan rivojlanib kelmoqda. Yakka va ko‘pchilik bo‘lib qo‘shiq aytish deyarli hamma xalqlarning butun turmush hayoti bilan qadim zamonlardan buyon bog‘liq bo‘lib kelgan. Ma’lumki, an’anaviy marosim xalq qo‘shiqlari u yoki bu marosim munosabati bilan xalq tomonidan to‘qilgan qo‘shiqlar jamoa bo‘lib ijro etilgan va ular hozirgi davrgacha bizga yetib kelgan.

Zotan xalqimiz bugungi hayotida ham qo‘shiqchilik san’ati alohida o‘rin tutadi. Mamlakatimizda qo‘shiqsiz biron – bir tadbir yoki bayramlarning o‘tkazilishini tasavvur etish qiyin. Uning sadolari radio va televideniye, teatr va konsert zallarida, maktab va o‘yingohlarda yangraydi.

Qo‘shiq bilan hayotimizdagi barcha voqealar ham chambarchas bog‘liqdir. U insonlarning ichki dunyosini boyitadi va hayotini go‘zallik sari chorlaydi.

O‘zbek xalqining yuksak  ma’naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yosh xonanda va sozandalarni boy madaniy merosimiz - asrlar davomidagi an’analarimiz va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash yosh iste’dodli xonandalarni kashf etish, ustoz hofizlarning betakror ijrochilik uslubini yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston xalq artistlari Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Komiljon Otaniyozov, shuningdek O‘zbekiston xalq hofizi Ma’murjon Uzoqov, Jo‘raxon Sultonov, Nazira Ahmedova nomlaridagi Respublika xonandalar tanlovi e’lon qilingan. Bunday tanlovlar talabalarning kasbiy o‘sishlari, vokal ijrochiligini rivojlantirishga, o‘ziga xos maktab sifatida xizmat qiladi.

Taniqli fiziolog olim I.P.Pavlov o‘z ilmiy maqolalarida: “Inson har qanday murakkablikdagi ishni hech qachon shiddat bilan jadal boshlamasligi kerak. Buni faoliyat sharoitiga qarab asta - sekin kuchaytirib borishi lozim. Mashqlarni ijro etish jarayonida organizm bosqichma - bosqich jangovar tayyorgarlik holatiga kiradi,

pulsning chastotasi, nafas olish ritmi, analizatorlar sezuvchanligi, fikrlash jarayonlari tezligi oshadi", - deb ta'kidlagan edi.

Barcha yo'nalishdagi musiqachilar, ayniqsa, vokal va puflab chalinadigan cholg'ular ijrochilarining kasbiy o'sishi uchun to'g'ri nafas olish muhimligini e'tiborga olib, ana shu vokal ijrochiligidagi *Nafas* olishning uchta turi (tipi) haqida fikr yuritamiz va tavsiyalarimiz bilan o'rtoqlashamiz:

- *Yuqori qism*, tomoq bilan nafas olish, bunda yelkalar ko'tarilib, pasayib turadi.
- *O'rta*, ya'ni ko'krak, qovurg'alar orasi bilan nafas olish, bunda qovurg'alar qisqarib turadi.
- *Pastki*, ya'ni diafragma bilan nafas olish, bunda diafragma pastga, qorin esa oldinga kengayadi.

To'liq, samarali nafas olish quyidagicha amalga oshiriladi: nafas chiqarib bo'lgandan so'ng to'liq chuqur nafas olinadi, bu paytda qorin oldinga kengayadi, so'ngra qovurg'alar ichkariga torayadi va nihoyat, havo o'pkaning yuqori qismini to'ldiradi. Nafas chiqarish paytida nafas oldin o'pkaning yuqori qismidan, keyin ko'krakdan va qorinning pastki qismidan chiqadi. To'liq nafas olish ichki organlar - jigar, buyrak va boshqalarni massaj qiladi hamda ularda qon aylanishini yaxshilaydi. Faqatgina burun orqali nafas olishni odat qilish lozim, og'izdan nafas olish bosh aylanishiga va muskullarning ortiqcha qisqarishiga sabab bo'lishi mumkin.

Profilaktika maqsadida ritmik nafas olish mashqlarini bajarish mumkin: bunda 4 chorak sanoqda nafas olish, 4 chorak nafasni saqlab turish, 4 chorak davomida nafas chiqarish va yana 4 chorak davomida tutib turish tavsiya etiladi. Bunday nafas olish usuli ruhiy-asab toliqishlari oldini oladi.

Talaba ashula aytish texnikasini o'zlashtirish jarayonida qo'shiqchilikning xilma – xil turlarini o'rganib borishi kerak. Zamonaviy vokal – konsert repertuari, mavjud vokal – texnik vositalarining barcha zaxiralarini to'liq egallashni taqozo etadi, chunki xonandalar turli repertuarlarni - katta mumtoz ashulalardan tortib, zamonaviy bastakorlarning qo'shiqlarigacha bo'lgan repertuarni kuylashlariga to'g'ri keladi.

Kuylashda ovozni o'rganishning asosiy turi *kantilena* bo'lib, kuylash bilan bog'liq *mayinlik*, ya'ni tovushdan tovushga o'tishdagi mayinlik nazarda tutiladi.

*Kantilena* barcha milliy ashulachilik maktablarining asosiy musiqasi hisoblanadi. Biroq legato kuylashda kantileno xarakterini to‘liq ochib bermaydi. Kantilenalik - xush ovozlik – albatta erkin ovozlar qo‘shilib kelishini talab etadi. Aynan *vibrato kantileno* xarakterini belgilovchi tovushlar qo‘shilib kelishini ta’minlaydi.

Chidamli vibrato ashulachilik ovozini to‘g‘ri tashkil eta oladi. Nafasdagi dimog‘dorlikni yo‘qotish imkoni bo‘lmasa, siqiq tovush to‘laqonli kantilenoga ega bo‘la olmaydi. Demak, kuylashda kantilenoga ega bo‘lish bevosita to‘g‘ri tovush tashkil etish bilan bog‘liq.

Kuylashga oid boshqa tur – *portamento* – tovushning majburiy sirg‘alishini, uning yuqoriga yoki pastga sirg‘alishini bildiradi. Agar portamento usul ijrosi qiyinchilik tug‘dirsa, nutq xayajon instansiyasi (yuqori portamento), tasdiqlash intonasiyasi (past portamento)ni o‘zlashtirish borasida, o‘z ustida mashq qilish foydali bo‘lib, so‘ngra mazkur tuyg‘uni saqlagan holda har bir intervalni kuylash taklif etiladi.

Boshqacha usul – tovushlar orasida *xromatik gammalar* mavjudligini ko‘z oldiga keltirib, uni chaqqon, tez harakatlar bilan kuylash lozim.

Ovozni o‘rganishning yana bir turi *ravonlik* – harakat yoki koloratur (bezash) texnika bilan kuylay olish hisoblanadi. XVII asr ikkinchi yarmi va XVIII asr – *Belkanto* davridagi asarlarning aksariyati koloratura asosiga qurilib, barcha tur ovozlarga majburiy hisoblangan. XIX asrda Rossiyadan keyin G‘arb musiqasida kolotura ayollarning yuqori tovush ijrosi uchungina qo‘llanila boshlandi.

Ravonlik texnikasini egallash barcha turdagi tovushlar uchun zarur. U maxsus tanlab olingan mashqlar hamda ovozni voyaga yetkazish mashqlari orqali rivojlantirib boriladi. Tez harakatlanishni o‘rganishning asosiy tamoyili – mashqning o‘ziga xosligi sifatida vokal mashq topshiriqlarini asta - sekin murakkablashtirib borish ijro usuliga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Intonasiyaning aniqligini, shiddatning ravonligini va barcha notalarda kuylashni muntazam kuzatib borish kerak. Avval kichik gammalarni, arpedjo yo‘llarini, forshlag va gruppetolarni o‘zlashtirish lozim bo‘ladi. Ravonlik texnikasi ustida ishlash – hiqildoq uchun o‘ziga xos gimnastika hisoblanadi. Ravonlik texnikasi ustida ishlash jarayoni xonanda diapazonining rivojlanishini yengillashtiradi.

Bundan tashqari, ravonlik qalbakilikka qarshi kurashish uchun foydalidir. Ravonlik texnikasining eng murakkab turlaridan biri - ovozning titrab chiqishi hisoblanadi. Ovozning titrab chiqishi ostida qisqa va uzoq daqiqalar oralig‘ida ikki tovushning bir – biri bilan tez almashinuvi tushuniladi. Belkanto davrida ovoz titrab chiqishiga ega bo‘lish barcha tur ovozlar uchun majburiy hisoblangan va o‘sha davrda uning sakkiz xil ko‘rinishi mavjud bo‘lgan.

Ovozning titrab chiqishi hiqildoqning barcha tebranishida amalga oshirilgan hamda yuqori va past tovushlar tutilishidagi yuqori va past vibrato kengayishini ham eslatib turadi.

Tovushning titrab chiqishi hiqildoqning erkinligi va o‘zgaruvchanligini yana ham katta darajada ishlab chiqadi, uni elastik va tarang qiladi. Tovushning titrab chiqish usuliga erishish uchun  ashulachilik nafasi ham yaxshi mashq qilishni talab etadi.

Barcha tur tovushlar uchun majburiy vokal texnikasi turlaridan tovushni fililash hisoblanadi. Fili (fil – ip – fr.) nomining o‘zi shuni ko‘rsatib turibdiki, u tovush kuchini o‘zgartirishga ega bo‘lib, tovush ipiga o‘xshab, uni arang eshitilish darajasiga keltirib ko‘yadi. Bu tovush dinamikasini ravonlik bilan qattiqdan pastga (***f*-P**) va pastdan qattiqqa (**P-*f***) tomon o‘zgartira oladi. Fililash xonandachilik tovushini tashkil etish, to‘g‘ri ko‘rsatkichlarni a’lo darajada namoyon etishga xizmat qiladi. Fililashni tovushning xarakteridan kelib chiqqan holda messo forte yoki fortedan pianoga bajarish taklif etiladi.

### *1.2. NAFAS OLISH YO‘LLARI*

Xonanda kuylash vaqtida, ya’ni tovush hosil qilishda nafasni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi muhim rol o‘ynaydi. “Kuylash san’ati nafasni to‘g‘ri ishga solish san’atidir”, - degan ibora klassik ibora hisoblanadi.

Kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas orasida ma’lum darajada farq bor. Fiziologik nafasda nafas olish aniq bir ritmda va ma’lum bir vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi. Kuylash vaqtidagi nafas olish tez, qisqa vaqt oralig‘ida sodir bo‘lib, nafas chiqarish esa bir qancha vaqtga cho‘ziladi. Nafas ritmi ijro etilayotgan asar xarakteriga qarab o‘zgarib turadi. Kuylashda fiziologik nafasga qaraganda chuqurroq nafas olinadi.

Kuylashda nafas olishning bir qancha turlari mavjud:

1. Pastki qovurg‘a kengayuvchi nafas olish.
2. Yelka kengayuvchi nafas olish.
3. Qorin bilan nafas olish.
4. Ko‘krak bilan nafas olish.

Kuylash vaqtida nafas olishning pastki qovurg‘alar kengayuvchi nafas olish va qorin bilan nafas olish turlarini ishlatish ma’quldir. Diafragma odam organizmida ko‘krak va qorin bo‘shlig‘ini ajratib turadi. Pastki qovurg‘alar va diafragma vositasida nafas olishda nafas olish va chiqarish diafragma orqali tartibga solinadi.

Bu qanday sodir bo‘ladi?

Xonanda xuddi gul hidlagandek nafas oladi. Bunda o‘pkalar kengayib pastki qovurg‘alarni tashqi tomonga suradi va difragma pasayadi. Natijada qorinning devori oldinga shishib chiqadi. Bu xolda yelka va ko‘krakning yuqori qismi o‘zgarmaydi. Nafas chiqarish tejamli, uzoq muddatli, tekis bo‘lishi shart. Nafas chiqarish qorin tarang qobig‘ining xarakati bilan boshqariladi va havo yuqoriga yo‘naladi. Natijada ovoz pardalarini tebranishga undaydi. Pastki qovurg‘alar va diafragma asta-sekin o‘z qobig‘iga qaytadi.

### *1.3. TOVUSH HOSIL QILISH*

Yuqorida aytilganidek, tovush nafas va ovoz pardalarining xarakati natijasida hosil bo‘ladi. Tovush havoning yopiq holatdagi ovoz teshigi orqali o‘tganda ovoz pardalari tebranishi vaqtida yuzaga keladi. Tovushning paydo bo‘lish vaqti “tovush hujumi” deyiladi. Ovoz pardalarining jipsligiga, nafas chiqarishning kuchi va xarakteriga qarab tovush hujumi qattiq, mayin va nafas olishdan keyingi hujum bo‘lishi mumkin. Tovushning yumshoq hujumida ovoz pardalari nafas chiqarish boshlanishi bilan ochiladi. Tovushning qattiq hujumi nafas chiqarish oldidan ovoz pardalarining zich yopilishi natijasida hosil bo‘ladi. Bu holda chiqayotgan havo katta bosim bilan ovoz pardalariga kelib uriladi. Nafas olishdan keyingi hujumda esa ovoz pardalari nafas chiqa boshlagandan keyin birikadi. Natijada tovushdan oldin nafas chiqarishda unsiz “h” eshitiladi. Qo‘shimcha tovushlar hisobiga tovush o‘zining sofligini yo‘qotadi. Ovoz

pardalari bo‘shashib qoladi. Xonandalar amalda tovush hujumining hamma turlarini bilishi kerak. Lekin ma’quli “yumshoq tovush hujumi” hisoblanadi.

Hozirgi zamon yoshlarining estetik idroklarini tarbiyalash borasida g‘amxo‘rlik qilar ekanmiz, san’at bilan oshno qilishdan hosil bo‘ladigan his-hayajondan, uni o‘z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o‘rgatishimiz lozim. San’at - kishilik faoliyatining ajralmas bir qismi bo‘lib, kishi shaxsi san’at vositasi yordamida va ishtirokida to‘laligicha yorqin namoyon bo‘ladi. U insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o‘stirishda, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradi. Shuning uchun kelajak avlodni tarbiyalashda san’at muhim o‘rin egallaydi. Musiqiy-estetik tarbiya jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo‘lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog‘i, keng omma orasida musiqa targ‘iboti olib borish, san’at orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali foydalanish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu murakkab vazifani bajarishda *Qo‘shiqchilik san’ati* ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu fanni to‘laqonli egallash va kelgusida Vatan, xalq xizmatida bo‘lish katta mehnat, izlanish, nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirish talab etiladi.

*Qo‘shiqchilik san’ati* fani bo‘yicha o‘qitish maxsus o‘quv dargohlarida yakka xonandalik darslarida olib boriladi. Unda ovoz hosil qilish malakalaridan boshlab, xonandalik san’atini egallashgacha bo‘lgan izlanishlarni o‘rganishdek muhim vazifalar bajariladi. Albatta, bunday maxsus vazifa talabalarga manzur bo‘ladigan o‘zbek kuy – qo‘shiqlar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvoffiqdir. Shuning uchun mazkur o‘quv qo‘llanma o‘zbek kompozitorlarining yangi asarlari, ya’ni o‘zbek musiqali dramalaridan parchalar, romanslar, ariyalar, xalq qo‘shiqlari namunalari o‘rin olgan bo‘lib, ularni kuylash va ijro malakalariga doir annotasiyalar hamda uslubiy tavsiyalar ham bayon etilgan.

O‘quv qo‘llanma maxsus o‘quv dargohlardagi “Yakkaxon va an’anaviy qo‘shiqchilik” fani dasturlari talablariga moslashtirilgan bo‘lib, unda soprano, alt, tenor, bariton va bas kabi ovozlarning kuylashdagi “Vokal mahorati (texnikasi)” ni o‘zlashtirishga qaratilgan.

Ro‘yxatga kiritilgan asarlarni talabaning ovoz diapazoniga mos tonlikka transpozisiya qilib berish tavsiya etiladi. Xalq qo‘shiqlari, romans yoki musiqali dramalardan ariyalarni ijro etish uslublarini o‘rganish, uzluksiz tarzda ma’lum ketma – ketlikda, oddiydan murakkabga yo‘naltirib borish maqsadga muvofiqdir.

Bu asarlar talabalarning vokal – texnik bilimlarini yanada chuqurroq egallashi, kosta – abdominal, ya’ni *aralash nafas* ustida ishlashni, *yumshoq xujum* mashqi, *aniq intonasiya*, *artikulyasiya*, *legato, stakkato, harakatchanlik, kantilena, arpedjio, filirovka* uslublarini o‘zlashtirish, asarning badiiy tomonlarini mukammal o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, ashula kuylash mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

Xalq va ommaviy qo‘shiqlarni ijro etishda *akademik uslub* bilan bir qatorda qorin bo‘shlig‘idan foydalaniladigan *ishkomi uslubi* o‘quv amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Bu esa o‘quvchining tabiiy, materiallardan foydalangan holda nafas bilan aytib o‘rganishda katta ahamiyatga egadir.

***Savol va topshiriqlar:***

**1.** Xonandalikda nafasning o‘rni va ahamiyati qanday?

**2.** Xonandalikdagi nafasning qaysi turlarini bilasiz?

**3.** Xonandalikda intonatsiya va diksiya (talaffuz)ning ahamiyatini tushuntiring.

**4.** Xonandalikda dinamikaning o‘rnini qanday tushunasiz?

## 1.4. OVOZNI QO‘YISH

Ovozni qo‘yish – kuylovchining eshitish va mushak ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni, yaxshi xonandalik odatlarini shakllantirishdan iborat. Kuylashga o‘rgatishda asosiy vazifa – ovoz va eshitish, uni badiiy rivojlantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Xonandalik tovush ustida ishlash jarayonida to‘g‘ri xonandalik ijro holatini qo‘yish orqali nafas tayanchi ko‘nikmalari egallanadi, nafasni to‘g‘ri taqsimlash, to‘g‘ri xonandalik pozitsiyasi o‘rganiladi, bu ovozning jarangliligini, parvozliligini, yig‘iqligi kabi sifatlarni baxsh etadi.

Vokal mashg‘ulotlari boshida, odatda ovoz apparatini “qizdirilgan”, vokal ko‘nikmalarini shakllantiradigan va rivojlantiradigan mashqlar bajariladi. Cholg‘u jo‘rligisiz kuylash, *solo* kuylash sinfida o‘qish mazmuniga kirgan maxsus ko‘nikma bo‘lib, bunday kuylash jarayonida xonandalik tovushning tembr, dinamik va tovush balandligi (yuqori nota tovushlar) haqidagi eshitish tasavvuri komponentlari rivojlanadi.

Kuylash – ijro faoliyatining amaliy turi sanaladi. Vokal o‘qitish ko‘p jihatdan xonandalik, ovoz hosil qilish amaliy kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtirishdan iborat bo‘ladi.

Kuylashga o‘rgatishda ovoz apparati a’zolari kuylovchilik vazifalariga maxsus moslashtiriladi. Kuylovchilik tovushi, jarang xarakteri xaqidagi tasavvurlar - musiqiy mazmunli ifodalilik bilan belgilanadi va ovoz apparati faoliyatiga ta’sir etadi. Vokal jarangi ifodaliligi, tovush sifati, vokal-texnik ko‘nikmalar: nafasda rezonatorlar ishi talaffuz apparatini egallashga bog‘liq, biroq texnik ko‘nikmalarni shakllantirish emotsional yo‘nalish va badiiy ifodalik bilan birga olib borilishi lozim.

Xonandalik ovozga kasbiy talablar - bu jarangdorlik, parvozlilik, chiroyli jaranglashdir. O‘qitishning boshlang‘ich bosqichida vokal – texnik ish ustuvorlik qiladi. Ovozning asosiy boshqaruvchisi (regulyatori) eshitish sanaladi. Ovoz va eshitishni rivojlantirish kuylashga o‘rgatishdagi asosiy vazifa. Kuylovchilik - tovushning turli xususiyatlarini eshita olish, uni shu xususiyatlariga ko‘ra aniqlay olish, ya’ni ovoz apparati ishiga ko‘ra uni tanish, vokal eshitish deyiladi. Tovush hosil qilishda nafas olish muhim omil sanaladi.

Ayollar ovozida ko‘krak registri, bosh va ko‘krak tarangi birlashgan markaziy va diapazonning yuqori qismida bosh registri (yorqin, ochiq jaranglashi) bilan farqlanadi.

Professional xonandalik ovozi ikki oktavalik diapazonga ega bo‘lishi, butun diapazon oralig‘ida tekis jaranglashi lozim. Bunga aralash jarangli aks rivojlanish hisobiga erishiladi. Ovozlar tembr va balandligiga ko‘ra tasniflanadi. Ular asosan quyidagi turlari bilan farqlanadi:

*Ayollar ovozlari:*

- koloratura – soprano;
- soprano;
- metso – soprano;
- kontralto.

*Erkaklar ovozlari:*

- tenor;
- bariton;
- bas.

*O‘g‘il bolalar ovozi:*

- diskant.

Ayollar ovozlari quydagilarga bo‘linadi:

*Koloratur soprano* – eng baland ayollar ovozi (diapazoni keng, cheksiz kumush yuqori tembrli nafis ovoz, yengillik eng murakkab bo’lib, keng sakrashlar, nozik melizmlar va xayratomuz bravur passajlar imkonini beradi). Opera partiyalari: tun malikasi (“Sehrli fleyta”), qo‘g‘irchoq (“Gofman ertaklari”), Qor qiz (“Qor qiz”).

*Lirik soprano* – diapazoni birinchi oktava do – uchinchi oktava do, re. Kantilen yumshoq, yorqin, jaranglovchi ovoz. Opera partiyalari: Violetta (“Traviata”), Iolanta (“Iolanta”), Margarita (“Faust”).

*Lirik* – dramatik soprano – hajmliroq, juda ifodali ovoz bo‘lib, unda yumshoqlik, kantilena va spinato birlashadi. Opera partiyalari: Tatyana (“Yevgeniy Onegin”), Norma (“Norma”), Aida (“Aida”).

*Dramatik soprano* – kuchli, hajmli, yorqin tembrli ovoz. Bu unga butun partiyani emotsional koʻtarinkilik bilan ijro etish imkonini beradi. Opera partiyasi: Toska ("Toska"), Abigal ("Nabukko"), Turandot ("Turandot").

*Messo – soprano. Soprano va kontralto oʻrtasidagi oʻrtacha ovoz. Lirik messo –* soprano - tembriga koʻra yorqin va rangli sopranoga yaqin ovoz (*diapazoni – kichik* oktava lya – ikkinchi oktava lya, si). Opera partiyalari: Amneris ("Aida"), Eboli ("Don Karlos"), Tana ("May tuni"), Bahor ("Qorqiz").

*Markaziy messo* – soprano – yirik, zich, kuchli ovoz. Oprea partiyalari: Lyubasha ("Shox kelini"), Marfa ("Xovanshina"), Azugena ("Trubadur"), Karmen ("Karmen").

*Koloratur messo – soprano –* juda noyob, yorqin, nozik va harakatchan ovoz, eng murakkab passajlar, fioritura[1]lar va ruhsidalarni kuylash imkonini beradi. Opera partiyalari: Izabella ("Jazoirdagi italiyalik ayol"), Rozina ("Seviliya sartaroshi"), Zolushka ("Zolushka").

*Kontralto* – eng past ayollar ovozi. Barxatli, ajoyib koʻkrak notali ovoz. Opera partiyalari: Ratmir ("Ruslan va Lyudmila"), Konchakovka ("Knyaz Igor"), Olga ("Yevgeniy Onegin"), Ulrika ("Bal maskarad").

Erkaklar ovozlari quydagilarga boʻlinadi:

*Lirik tenor* – kumushsimon, yumshoq, juda harakatchan koloroturali ovoz (diapazoni – birinchi oktava do – uchinchi oktava si, do). Opera partiyalari: Lenskiy ("Yevgeniy Onegin"), Levko ("May tunmi"), Lindoro ("Jazoirdagi italiyalik ayol"), Graf Almaviva ("Seviliya sartaroshi"). Lirik – dramatik tenor – koʻproq agint va zich ovoz. Opera partiyalari: Alfrid ("Traviata"), Gersog ("Rigoletto"), Vladimir Igoryevich ("Knyaz Igor").

*Dramatik tenor* – hajmli, yorqin, metal, tabiatan juda kuchli ovoz. Opera partiyalari: German ("Pikovaya dama"), Matushka ("Trubadur"), Turidu ("Qishloq nomusi" – "Selskaya chest"), Kalif ("Turandot").

---

[1] Формант – лингв. Сўз ясовчи ва сўз турловчи қўшимчаларнинг умумий номи
Фиоритура – муз. Қўшимча овозлар билан оҳангни безаш
Гаймар – бурун ичига туташган бўшлиғининг яллиғланиши
Фиоритура – муз. Қўшимча овозлар билан оҳангни безаш.

*Kontr – tenor – messo – saprano tessiturasida* jaranglaydigan ovoz. Rivojlangan flajolet bilan kuylanadi. Barcha qadimiy musiqada qo‘llaniladi (Gendel, Bax, Monteverdi).

*Lirik bariton* – baland, yorqin, harakatlangan ovoz (diapazoni: katta oktava lya – birinchi oktava lya). Opera partiyalari: Figaro (“Seviliya sartaroshi”), Don Juan (“Don Juan”), Don Paskuale (“Don Paskuale”). Valentin (“Faust”), Yeleskiy (“Pikovaya dama”).

*Dramatik bariton* – barxatli, xajmli diapazoniga ko‘ra kuchli ovoz. Opera partiyalari: Amonasro (“Aida”), Yago (“Otello”), Dagon (“Samson va Dalila”).

*Bas* – eng past erkak – ovozi (diapazoni: katta oktava do – birinchi oktava – re, mi).

*Yuqori bas* – odatda xarakterli, harakatchan, komik ovoz. Opera partiyalari: Don Bazilio (“Seviliya sartaroshi”), Leporello (“Don Juan”), Malatesta (“Don Paskuale”). Mustafo (“Jazoirdagi italiyalik ayol”).

*Markaziy bas* – yirik, yorqin, juda sof ovoz, juda boy ko‘krak registri. Opera partiyalari: Boris Godunov, Tegirmonchi (“Suv parisi”), Filipp (“Don Karlos”). Rene (“Iolanta”), Konchak (“Knyaz Igor”).

*Bas* – profundo – juda past, ko‘krak, juda xajmli ovoz. Ko‘proq cherkov – xor musiqasida ishlatiladi.

*Diskant* – o‘g‘il bolalar ovozi. Vokal partiyalariga ko‘ra past, o‘rta va baland diskant bilan farqlanadi.

***Savol va topshiriqlar:***

1. Xonandalikda ayollar ovozlarining turlari.
2. Xonandalikda erkaklar ovozlarining turlari.
3. Xonandalikda o‘g‘il bolalar ovozlarining turlari.

## 1.5. TOVUSH TASHKIL ETISH NAZARIYASI

200 yildan beri tovush tashkil etishning mioelastik (pay – elastik) nazariyasiga amal qilinmoqda. Bu nazariyadan kelib chiqib, tovush qatlamlari va uning ustidagi havo bosimi ko‘tarilishini yetarli darajada bir - biriga yaqinlashuvi tovush tashkil etish omili sifatida qaralishi mumkin. Bu nazariyaga asosan tovush qatlami tebranishi ikki xil kuch ta’sirida yuzaga keladi, havo kuchi va tovush qatlamlari egiluvchanlik kuchi ta’sirida. Tovushni yuzaga keltirish uchun ularga faqat ma’lum tonus berish va ularni yaqinlashtirish kerak, qatlamli bosim ta’sirida esa asta – sekin tebranish amalga oshiriladi.

1950 yili R.Yusson o‘zining “Ijrochilik tovushining fiziologik va akustik hodisasining asosiy tadqiqotlari” nomli dissertasiyasida yangi neyroxronik nazariyani ilgari suradi. Bu nazariyaga muvofiq boylamlar ustki bosimsiz asab tomirlari uyg‘onishi ta’sirida, asab markaziy tizimidan hiqildoq osti asab tolalariga o‘tib tebranishi mumkin. Yusson bog‘lamlaridan boruvchi tebranish tezligi bo‘g‘izdan kelayotgan tebranish tezligiga muvofiq keladi, degan fikrni olg‘a suradi.

A.Losev “Tovush tashkil etish nazariyasi haqida” gi ishida nutqiy va qo‘shiqchilik tovushini tashkil etishni boshqarishni bir muncha qulay turini ishlab chiqdi. U buni modulyatsiya nazariyasi deb atadi. U o‘zida mioelastik va neyroxronaksik nazariyalarning asosiy holatini o‘zida mujassamlashtirgan.

### 1.6. TOVUSH PAYDO QILISH ORGANLARINING TUZILISHI

Bo‘g‘iz, burin bo‘shliqlari nafas olish naycha yo‘llari va o‘pka tovush hosil qiluvchi a’zolar hisoblanadi. Hiqildoq nafas olish naychasi (traxeya) va xalqum orasida joylashgan. Nafas yo‘lining bo‘shlig‘i kesilgan holda dum soatiga o‘xshaydi. Hiqildoq ichidan shilimshiq parda bilan qoplangan va to‘rtta tomoq tog‘ayidan iborat. Ular qalqonsimon, ikkita qora tog‘ay va barmoqsimon bo‘ladi. Ular o‘zaro bog‘langan va mushaklar bilan ta’minlangan, tomoq tog‘aylari yoshiga qarab sekin – asta suyakka aylanib boradi. Bo‘g‘izning yuqori bo‘limi – ustki boylam bo‘shlig‘i yo‘g‘on tovush boylamigacha cho‘zilgan.

Yo‘g‘on tovush boylamalari ashula aytishda qatnashmaydi, lekin ular tarkibida suyuqlik bilan ta’minlaydigan bezlar bo‘lib, ular haqiqiy tovush paychasini namlab turadi. Haqiqiy tovush boylamlarining qirg‘oqlari sadaf rangga ega. Tovush paychasining ichida ikki guruh muskullar: ichki, tashqi cho‘ziq muskullar tovushda ishtirok etadi. Mazkur guruhdagilarning har biri ma’lum vazifani bajaradi. Tovush muskullari ko‘krak registrida tovush bog‘lamlarining uzunligini, yo‘g‘onligini, kengligini o‘zgartiradi, tovush oralig‘ini kengaytiradi va toraytiradi.

Tinch nafas olinayotganda boylamlar orasida uchburchakli keng darcha ochiladi – tovush darchasi orqali havo bemalol keladi. Hiqildoqni ovqat tushib qolishidan ximoya qilish uchun yutingan vaqtda tomoq uchburchakli kemirchak plastinka hiqildoq qopqog‘i bilan berkitiladi.

## 1.7. XONANDALIK NAFAS OLISH

Xonandalik nafas olish. Xonandalik *nafas olishni* rivojlantirish - kuylash asosi sifatida, kuylovchilik tovush ustida ishlash jarayonida kechadi va asta - sekin, tizimli (sistemali) tarbiyalanadi.

U bir maromda, erkin, ovoz hosil qilishda qatnashuvchi barcha usul (sistema) larning tabiiy muvofiqlashuviga ko‘maklashadigan bo‘lishi kerak. Shunda tinch nafas olishga “tayangan” holda, faqatgina kuylash bilan bog‘liq tovush uchun sharoit yaratiladi. Bunday tovush to‘liq va chiroyli eshitiladi.

Ovoz hosil kilishdan avval nafas olinadi, nafasning bu fazosini nazorat qilish mumkin, bu o‘qitish uchun juda muhim. Xonandalik nafas olish jarayonida o‘pka havoga to‘ladi va ovoz apparati ovoz hosil qilishga tayyorlanadi. Xonandalik nafasi shovqinsiz ancha chuqur, yarim esnash tuyg‘usi bilan olinadi.

Nafas olganda ko‘p miqdorda havo olish yaramaydi, zero tovush berish va ovoz hosil qilish jarayonining o‘zi ham qiyinlashadi. Xonanda nafas olishi va chiqarishi nafasni bir zum tutib turishi bilan ajratiladi, so‘ng nafas chiqarishi boshlanadi. Tovushni qayta yaratishdan oldin nafasni bir zum tutib turish – nafas olish holati, nafas olish pozisiyasini belgilash payti (fiksasiya momenti), qo‘yilgan nafas olish qoidasi butun

kuylash davomida, nafas chikarishda saqlanishi kerak, bu nafas tayanchini tashkil etadi. To‘g‘ri nafas chikarishning asosiy vazifasi - uni ohista, tejamkorona chiqarish, ovoz to‘qimalari normal ishlashi uchun zarur bo‘lgan to‘qima osti bo‘shlig‘ida bosim yaratishdan iborat. Nafasni oxirigacha tovushga aylantirib sarflay olish xonandalik nafasini egallaganlik mahoratini belgilaydi.

Vokal – pedagogik amaliyotida pastki qovurg‘a – diafragmatik, ya’ni aralash nafas olish eng qulay sanaladi. Nafasning bu shaklida ko‘krak qafasi va diafragma ishga faol kirishadi: nafas olish ularning bir paytdagi harakati bilan kechadi, bu to‘liq nafas olish imkonini beradi. Nafas va ovoz to‘qimalari o‘zaro ta’sir tovush tayanchini belgilaydi. Boshqacha aytganda, xonandalik tayanchi - ovoz apparati barcha qismlari (bo‘g‘iz, nafas a’zolari va ustki trubka) muvoflqlashgan ishi natijasi.

Xonandalik tayanchining asosiy mezoni qayta yaratilgan tovush sifatidir. Bu yig‘iq tembr bo‘yog‘iga boy, yaxshi eshitiladigan, dumaloq tovush. Shu sababli ta’lim boshlanishida to‘g‘ri tashkil etilgan nafas olish va tovush attakasi birinchi darajali muhim faoliyat sanaladi, zero ko‘p jihatdan xor jarangini belgilab beradi.

Ovoz to‘qimalari va nafas hamkorligining boshlang‘ich daqiqasi tovush attakasi deyiladi. Attaka tovush paydo bo‘lish momenti. Ovoz hosil qilishning boshlang‘ich jarayonida (momentida) ovoz to‘qimalari ishini tashkil etayotib, attaka izchil jarangni belgilaydi. Tovushni olish usulini ixtiyoriy o‘zgartirib, bu bilan ovoz to‘qimalari ish xarakteriga ta’sir etamiz, ular irodamizga bevosita bog‘liq emas. Vokal pedagogik amaliyotida yumshoq va qattiq attaka qo‘llanadi. Attaka kuylashning ifoda vositasi sanaladi.

Kuylash – musiqiy tashkil etish, so‘z uyg‘unligi bilan bog‘liq bo‘lgan musiqa san’ati. Musiqiy nutq hosil bo‘lishida nutq a’zolari: og‘iz bo‘shlig‘i, til, yumshoq tanglay, pastki jag‘, bo‘g‘iz, hiqildoq qatnashadi. Bu a’zolarning (unli va undosh) nutq tovushlarini yaratishga qaratilgan ishi artikulyatsiya (talaffuz) deyiladi.

Talaffuz a’zolari alohida ahamiyatga ega. Bu ovoz apparatining eng harakatchan va irodamizga buysunadigan qismi. Pastki jag‘ harakati, lablar ishi, yumshoq tanglay holatini ko‘ra olamiz. Bu a’zolar ishi avvalo bo‘g‘iz bilan bog‘liq. Talaffuz a’zolari ishi sustligi, xuddi zo‘riqish kabi butun ovoz apparati ishiga ta’sir qiladi.

Kuylashda yumshoq tanglay va bo‘g‘iz sozligi ham juda muhim, zero ongimizga bo‘ysungan yumshoq tanglay orqali bo‘g‘izga, uning barqarorligiga ta’sir etamiz. Yumshoq tanglayning esnash holatiga kelishi unlilar shakllanishiga sharoit yaratadi, ularning dumaloqlashuviga, tembri, bo‘yog‘i, yuqori pozitsiyaga ta’sir etadi. Yuqori tonlar yumshoq tanglayning baland ko‘tarilishi, baland “gumbaz” ni talab qiladi. Bu ayniqsa erkak ovozlarida yuqori tonlarni shakllantirishda muhim. Kuylashga o‘rgatishning boshidanoq esnash kabi nafas olishga o‘rgatishga qat’iy e’tibor qaratish lozim. Esnash nafas olish pozitsiyasining tarkibiy qismi sanaladi.

Artikulyasiya organlari ishi samarali (intensiv) bo‘lishi, muvofiqlashganligi nutq tovushlarini tashkil etish lozim. Unda tez va g‘ayratli harakatlar, ayniqsa til harakatlari bo‘g‘izning qo‘yilgan kuylovchilik qoidasini buzmasin, hiqildoqni deyarli qo‘zg‘atmasdan, tovushlarni talaffuz qilishga erishish lozim.

**Nafas olish namunalari (tiplari).** Nafas olishning quyidagi tiplari farqlanadi:

1. Ko‘krakda nafas olish. Bunda ko‘krak qafasi a’zolari faol ishlaydi. Tashqi nafas olish harakatlari ko‘krak qafasi devorlarining faol harakatlaridan iborat bo‘ladi. Diafragma kam harakatchan, nafas olishda qorin ichga tortilgan. Ko‘krakda nafas olish turli klapanlari yoki yuqori – ko‘krak nafas olish, bunda ko‘krak qafasi yuqori bo‘g‘ini, yelka va bo‘yin mushaklari faol ishtirok etadi. Bu nafas olish yuzaki, bo‘yin mushaklari zo‘riqqan, hiqildoq harakatlari cheklangan, shu bois ovoz hosil qilish qiyinlashadi.

2. Aralash, ko‘krak – qorin nafas olish. (suyak – abdominal). Ko‘krak va qorin mushaklari, diafragma faol.

3. Qorinda yoki diafragmatik nafas olish. Bunda diafragma va qorin bo‘shlig‘i mushaklari, jumladan biz ko‘radigan qorin devori mushaklari faol qisqaradi, ko‘krak qafasi devorlari nisbatan teng. Erkaklar va ayollar nafas olishida ayrim tafovut mavjud. Erkaklar uchun “past”, qorin nafas olishiga yaqin nafas olishiga xos. Ayollar ancha “yuqori” nafas oladi, ularning nafas olishi ko‘krak tayanchiga yaqinroq.

**Nafas tayanchi.** Nafas tayanchi – nafas olish mushaklari “o‘yini”, ularning qisqarganda, ya’ni harakatlanganda aniq muvofiqlashgan o‘zaro hamkorligi tayanch elastik, nozik, egiluvchan bo‘lishi kerak. Xonandalik tayanchining asosiy mezoni qayta yaratilayotgan tovush sifatidir. Tartibli, tembr bo‘yoqlariga boy, yaxshi kuylanayotgan,

tanlangan tovushni vokalchilar tayangan tovush deb bilishadi. Unga zid o‘laroq, tayanmagan tovush tembri qashshoq, xorg‘in, rangsiz, yetarlicha “parvozsiz”, optimal kuchdan pastroq bo‘ladi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Xonandalikda shtrixlar turlari.
2. Xonandalikda ovoz chiqarish organlarining tuzilishini tasavvur qiling.
3. Xonandalikda ovoz qo‘yish mashqlari va nafas olish turlari.

## 1.8. GAPIRISH VA KUYLASH PAYTIDA NAFAS, HIQILDOQ BO‘G‘IZ, TALAFFUZ APPARATI

Qo‘shiq aytish vaqtidagi nafas olish yo‘lining ishlari bo‘g‘iz va talaffuz a’zolari bilan chambarchas uyg‘un. Shu bois kuylashda nafas yo‘llari ishini alohida holda ko‘rish shart hisoblanadi. Negaki ovoz tashkil etish jarayonida erkin nafas olish yo‘lini bo‘g‘ib qo‘yuvchi a’zo tovush chiqaruvchi oraliq sanaladi. Ovoz tashkil etish vaqtidagi tovush boylamlarning tebranishida bevosita nafas ishtirok etadi.

Vokal uslubiy adabiyotlarida nafas masalasiga alohida o‘rin ajratiladi. Biroq, bu masala borasida pedagog va xonandalarning ko‘z qarashlari turlicha. Birlari (Garsia, Lamperti) san’atda nafas olishdan to‘g‘ri foydalana bilish qo‘shiqchilik san’atining asosi deb bilsa, boshqa birlari agar bo‘g‘iz va talaffuz ishini to‘g‘ri tashkil eta bilsa nafas olishning o‘zi moslasha boradi va birlashib ketadi, degan qarashlarni ilgari suradi. Xonanda va pedagoglarning fikri faqat bir narsada – bu xonanda uchun uzoq, muddatli tovush signalini ta’minlovchi mayin va muntazam nafas olishni to‘g‘ri tanlay bilishida, degan qarashda bir xil.

Nafas olish xarakteri turli tarixiy sharoitda, asosan opera musiqasi xarakteriga bog‘liq. Masalan, XVII asrda birinchi operalardagi vokal o‘z ijrosi bilan nutq va qo‘shiq o‘rtalarida bo‘lib, nafas olish turi ko‘krak nafasi orqali amalga oshirilardi. XIX asrdagi vokal ijrosi bir muncha mazmunan boyib, kulminatsiyasi diapazonning yuqori bo‘limiga ko‘chadi, bularning hammasi nafas olish turini diafragma (ko‘krak-qursoq to‘sig‘i) va ko‘krak qursoq pardasiga o‘tishini talab etadi.

Kuylashda nafas olishning quyidagi an’anaviy turlari farqlanadi:

- urmovli nafas olish (klavikulyarli yoki ko‘krak oldi), ko‘krak nafasi oldingi bo‘limlari ko‘tarilishi va kengayishi hisobiga nafas olish amalga oshirilib, diafragma uning harakatida juda sust ishtirok etadi. Bunday holatda qorin tortilib, ko‘krak nafasining old bo‘limi, umrov va ba’zan yelkalar sezilarli darajada ko‘tariladi;
- ko‘krak osti – abdominal suyakning turfa ko‘rinishi;
- qovurg‘a osti – diafragmatik (abdominal suyakli, ko‘krak – qursoq pardali) nafas olish, undan ko‘pchilik xonandalar foydalanadi. Ko‘krak nafasining ostki bo‘limi bilan nafas olinayotganda qorin ham bir muncha oldinga chiqadi;
- qorindan (abdominal) nafas olish. Bu jarayonda qorin muskullari faol ishtirok etsa, ko‘krak nafasining holati o‘zgarmaydi.

Tos bilan nafas olish mumkin, degan fikrlar ham mavjud. Lekin bunday holat bo‘lishi mumkin emas, negaki tos suyaklari harakatlanishi va torayishi mumkin emas. Kuylashda tos diafragmasining roli haqidagi fikr ba’zi bir xonandalarning ijro vaqtidagi qorin ichi bosimi juda ko‘tarilishi oqibatida yuzaga kelgan subyektiv bahodir.

Vokal san’ati tarixi va amaliyoti yaxshi kasbiy ijro har qanday nafas olish turida mumkinligini isbotlab turibdi. Bunda nafas olish qaysi muskul guruhlari hisobiga amalga oshishi emas, balki nima hisobiga tovush ijro etilishini muvofiqlashtirilishi aniqlovchi hisoblanadi.

Tovush ijrosining muvofiqlashtiruvchi 3 guruhi mavjud:

1. Ko‘krak nafasi mushaklari – Xonandalar bunday ijroda yo‘g‘on (ulkan) ovozga ega bo‘lib, biroq tovush jarangdorligi bir qolipda bo‘ladi.

2. Qorin muskullari – Xonandalar bunday ijro usulida jo‘shqin rang – jaranglikka ega bo‘ladilar.

3. Ko‘krak qafasi mushaklari va qorin muskullari – Bunday ijro usulidagi xonandalar yetarlicha kuchli ovoz va jo‘shqin rang - baranglikka ega bo‘ladilar.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ko‘krak nafasi mushaklari qorin muskullariga nisbatan harakatda bir muncha cheklangan. Shu munosabat bilan xonandalik ijrosini alohida tovush sifati bilan bog‘liq holda muvofiqlashtirish, xonanda uchun nafas olishning qorishik turini ishlab chiqarish, tovush ijrosi jo‘shqinligiga va

bog‘lovchi bosimlarni muvofiqlashtirish harakatchanligiga erishish muhim hisoblanib, u xonandaga boy badiiy ijro vositasidan unumli foydalanish imkonini beradi.

## 1.9. KUYLASHDA BO‘G‘IZ AHAMIYATI

Hiqildoq – bu tovushning kuylovchi ovoz sifatida tug‘iladigan joyi bo‘lib, u o‘zida kuylashning asosiy sifatlari: tovush balandligi, tembr kuchi, titrashi va tez yoyilishini qamrab oladi.

Hiqildoq orqali kuylash ishi o‘rganilganda uning ikki yo‘nalishdagi faoliyat turi aniqlangan:

a) tashqi muskullar bilan qoplangan hiqildoqning qorishiq holdagi to‘liq harakatlanishi;

b) tovush boylamlari ishtirokidagi hiqildoq ichki muskullarining harakatlanishi.

Katta xonandalarning kuylash amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, odatda kuylash hiqildoqning izlab topilgan maxsus holati asosida ko‘riladi va bu holat ijro oxirigacha saqlanib qoladi. Bu shuningdek, xonandalar katta guruhi ijodini kuzatgan L.Dmitriyevning tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan. U bo‘g‘iz holati tovush turi bilan bog‘liq, degan xulosaga keladi. Negaki, barcha bas va baritonli kuylash davrida hiqildoq holatini pasaytirsalar, qolgan lirik va lirik – koloraturali ohang hiqildoq holatini ko‘targanda yoki uni tinch holatda tutib turganda ijro etiladi. Biroq dramatik tenor va messo – soprano ijrochilari ijodi kuzatilganda hiqildoq tovushdan tashqari yana nimagadir bog‘liq ekanligiga duch kelinadi.

O‘z tadqiqotlari davomida L.Dmitriyev tovush bog‘lamlari uzunligi va puflab chalinadigan asboblarning rezonatori orasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi hamda bu bog‘liqlik 1:10 proporsionalda bo‘lishi mumkin, degan xulosaga keladi. (Turli xil tovushlarning tovush boylamlari uzunligi va puflab chalinadigan asboblarning rezonatori uzunligi qiyosiy sxemasi ko‘zda tutiladi).

Professional xonandalar ijrosidagi barcha oshkora (unli), barcha tovush kengligida yaxshi qo‘yilgan ijro tufayli bo‘g‘iz o‘zining doimiy holatini egallab turadi. Bu o‘ziga xos holat, balki bo‘g‘izning tinch holatidan past darajada, tinch holati

darajasida yoki tinch holatdan yuqori bo‘lib, hamisha yakka ijrochiga xos ravishda ro‘y beradi.

Bo‘g‘iz ichki paylari o‘zining ishida me’yoriyligi bilan farqlanib turadi – bo‘g‘iz ustki holati esa barcha unli tovush kengliklarida o‘zgarmay qoladi. Kuylashda tovush a’zolari ishini yengillashtiradigan, boylamlar ustidagi ichki impedansni tashkil etuvchi hiqildoqqa kirish doimo tor holatda bo‘ladi.

Kuylashda og‘iz ochish tovushlarning eng sarasi va aniq ijrosi amalga oshirilishi bilan boshqariladi. Lablar o‘zining bir muncha asl (standart) holatida bo‘ladi. Yumshoq tanglay katta ahamiyat kasb etib, uning ko‘tarilishi tovush yuqori holatini ta’minlaydi. Hiqildoq birmuncha hissiyotga beriluvchan a’zo hisoblanadi.

# II. BOB. XONANDALIK BILIMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY YO‘LLARI

Fiziologik mexanizm birligidan oluvchi parda ostidagi xonandalik tovushi deganda bir maromda jaranglovchi tovushlar qatori tushuniladi. Erkak va ayollar tovushining parda tuzilishi turlicha: erkaklar tovushi ikki pardali – ko‘krak va falsetli hamda bir marotaba o‘tadigan. Ayollar tovushi esa uch pardali – ko‘krak, markaziy va bosh hamda shunga muvofiq ravishda ikki marotaba o‘tadigan bo‘ladi.

Ko‘krak pardasining ostidan o‘tadigan ohang yaxshi jaranglaydi va xonandaning subyektiv hissiyoti tufayli uning ko‘kragida jaranglaydi. Xuddi mana shundan ko‘krak pardasi nomi kelib chiqqan. O‘tadigan ohanglar subyektiv ravishda noqulay bo‘lib, odatda, ular xonanda tomonidan ko‘krak va falsetli pardalardan olinadi. Tajribasiz xonandaning falsetli pardasi juda past chikib, “shamollab qolgan” xarakterga ega bo‘lib, tembr bo‘yicha juda sayozdir. Falsetli jarangdorlikda bosh ishtirok etganligi tufayli uni “bosh tovushi” deb ham yuritiladi.

Ko‘krak pardasida tovush boylamlari bir-biriga jipslasha boradi va o‘zining barcha og‘irligi bilan tebranib turadi. Bu bir-biriga jipslasha borish o‘z navbatida to‘yingan, jarangdor, kuchli tovush tashkil etadi. Buning uchun nisbatan kam nafas sarflanadi. Falsetli pardada tovush boylamlarining faqatgina cheti tebranadi va ularning orasida dog‘simon yo‘riq paydo bo‘lib, undan havo bemalol o‘tib turadi. Shuning uchun ham falsetli tovushlar “shamollash” xarakteriga ega bo‘lib, obertoni sayoz va kuchsizdir.

Opera xonandalari professionalizmini aniqlovchi majburiy shartlarga ijro davomida bir maromlilikni ta’minlovchi to‘liq ikki oktavali tovush diapazoniga ega bo‘lishi kiradi. Bir maromga erishish tovushni yashirib turish tushunchasi bilan bog‘liq. Tovushni yashirib turish tomoq (trubka)da katta impedans (qarshilik) tashkil etish tushunchasi bilan bog‘liq. Bu impedans kuchli boylam bosimini bir meyorga keltiruvchi yuqori parda tovushlarini tashkil etib, tovush boylamlariga qorishiq ishlarni amalga oshirish barobarida hiqildoqning ma’lum yukini oladi.

Erkaklar tovush diapazoni yuqori qismini berkitish XIX asr o‘rtalarida paydo bo‘ldi. U o‘sha davrning Verdi, Vagner va boshqa kompozitorlarning opera asarlarida davr talabiga muvofiq ravishda yuzaga keldi.

Tovush pardalari to‘g‘riligining asosiy rivojlanishi – bu tovush boylamlari o‘z holicha ishlayotganida diapazon markazidan mayin va tabiiy ohangni topa bilishdir. Bunda quyidagilar foydali: meyoriy kuch, shiddat (attaka) ning mayinligi, nafas tortqilarisiz sirg‘aluvchi “O”, ularning yuqori impedansi, tayanch hissiyotini yaxshi saqlay bilish.

Yuqorining bir muncha ishonchli rivojlanish namunasi sifatida yuqori notalarda hech narsalarni o‘zgartirmaslik tamoyiliga aoslangan holda amalga oshirib, o‘rtacha pardaning yaxshi hamkorligida, deb hisoblash mumkin. Qorishiq ohangdorlikni rivojlantirishda mazkur tur tovushlarining o‘ziga xos jihatlarini e’tiborga olish zarur.

Masalan, ko‘krak nafasining yaxshi jarangdorligi *bas* ovozlar uchun xarakterli bo‘lgani uchun aynan uning afzalligini e’tiborda tutmoq zarur.

Ayol tovushi parda tuzilishi bilan erkak tovushidagi asosiy farq diapazonning markaziy qismidagi tabiiy qorishiq tovushlar yuzaga kelishida ko‘rinadi.

Ayollar past tovushining asosiy tamoyili – bu qorishiq tovushlarning joyidan asta – sekin pastga tushirib, toza ko‘krak tovushlarida jarangdorlik elementlarini topishdir.

### 2.1. BOSH VA KO‘KRAK REZONATORLARI

Rezonator – elastik devorlardan iborat havo hajmi hisoblanadi. U o‘z ohangi yoki obertoniga mos keladigan ma’lum tovush chastotasida aks - sado beradi.

Tovush yaxshi, bosh jarangdorligida aniq, qo‘ng‘iroqli, jarangli bo‘ladi. Ko‘krak nafasida esa – to‘yingan, “sergo‘sht”.

Bosh jarangdorlik - bu boshning yuz qismi tanglay majmuasi ustiga joylashib olgan kovaklar ishtirokida ro‘y beradi. Bosh rezanator tushunchasiga kiruvchi barcha kovaklar, suyak va kemirchak devorlariga mahkamlanish uchun ham o‘z rezonatorlik xususiyatini o‘zgartirishga moyil emas. Burundagi qo‘shimcha kovak – gaymar (burun ichiga tutashgan bo‘shliq) – diametr o‘lchami 3 sm. bo‘lib, bu xonandalik sohasidagi 3000 gs. chastotali yuqori jarangdorlikni ta’minlab beradi. Shuning uchun ham

rezanatorga “tushgan” tovush – to‘g‘ri shakllantirilgan ohangdir. Biroq bu rezonator tovushning yaxshi jarangdorligida bosh omil hisoblanadi, degani emas. Bosh rezonator hiqildoqdan chiqayotgan va o‘zida ko‘plab yuqori obertonlarga bo‘lgan tovush ijrosida javob beradi. Xonandalardagi bosh jarangdorlik tuyish turlicha: birovlarda u maska sohasida, boshqalarda – yuqoridagi old tish, uchinchi birovlarda – peshona bo‘shlig‘ida, to‘rtinchilarda – boshning tepa qismida qattiq tanglay sohasida bo‘ladi. Ovozning bir muncha titrash joyi, katta tovushi ortdan ko‘tarilishi bo‘yicha va yuqori notalarning bosh tepa qismi o‘zgarib turishi mumkin.

Bosh jarangdorlikni tuyishga undovchi uslublar mavjud. Bu uslublar “**m**” va “**n”** lash, deb ataluvchi “**m**” va “**n**” undoshlarini kuylash bilan bog‘liq. Tarkibida 3000 gs. obertonlarga doimiy ega “**i**” unlisidan foydalanish qattiq shiddat yoki nafas tayanchi uslubi boylamlar qo‘shilishini faollashtiradi.

Tovush boylamlari ko‘krak turi bo‘yicha o‘z tebranishida ishlasa ko‘p jarangdorligi hayotda kuchli bo‘ladi, shuningdek ko‘krak rezonatorlari faqat yaxshi ifodalangan, past chastotali tovushlarga ham javob beradi. Ko‘krak rezonatorining ahamiyati boshnikiga o‘xshaydi. Xonanda ko‘krak rezonansi bo‘yicha fon (begona tovush)ni nazarda tutib, jarangdorlik tovush boylamlari ishini yengillashtiradi.

Bosh va ko‘krak rezonatorlarining bir vaqtda jaranglashi tovush boylamlarini qorishiq, holda tebranishiga olib kelib, parda sinishini his qilmay, tekis ovoz bilan barcha diapazonda kuylash imkonini beradi.

Faqat bosh va ko‘krak jarangdorligini oshirishda tovushni inqirozga olib borishi mumkin. Bosh jarangdorlikni oshirib borish asta-sekin tovushlar qisqarishiga, ovozning ingichkalanishiga, tovushning to‘laqonli chiqmasligiga olib keladi. Ko‘krak jarangdorligidan noto‘g‘ri foydalanish tovushni og‘irlashtirib, registrga o‘tish jarayoni sezilib, tovush tebranishi hosil bo‘ladi, detonatsiya yuzaga kelib, yuqori notalar yo‘qola boshlaydi.

***Savol va topshiriqlar:***

1. Gapirish va kuylash vaqtidagi nafas turlari.
2. Xonandalikda kuylash apparati va undan foydalanish qoidalari.
3. Xonandalik bilimlari qanday shakllantiriladi?

## 2.2. TOVUSHNING SHIDDATI VA UNING TURLARI

Shiddat – bu tovush yuzaga kelishining debochasi. Uning uch turi mavjud – qattiq, yumshoq va nafas tovushi.

Qattiq shiddat orqali avval tovush boylamlari mustahkam jipslasha borib, faqat shundan keyingina boylam osti bosimning ko‘tarilishi ularni kuchli turtki bilan tarqatib yuboradi. Shiddatning bunday turi tovushni ravon, ta’sirchan etib, u shakllana boradi va aniq intonasiya paydo etadi. M.Garsia “Ashula maktabi” asarida shiddatning bu turini soir siye dloiye - hiqildoq zarbi bo‘lib, u maktabning asosini tashkil etadi. Qattiq shiddatdagi boylam ashulachilarni tarbiyalashda juda foydali hisoblanib, nafasi “o‘tib ketayotgan” lar hiqildoq ishida bo‘shashishganlikka ega bo‘lib, shu bilan birga qattiq shiddat bir-biriga mahkam jipslashgan boylamlarda tovush tashkil etishga o‘rgatadi. Bu holatda nafas o‘tib ketishi mumkin bo‘lmaydi, negaki tovush nafasga tayanadi. Biroq qattiq shiddatlardan noto‘g‘ri foydalanish mumkin emas, u tovushning siqiq va qattiq bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Qattiq shiddat ayrim asarlarda ifoda vositasi sifatida foydalanish mumkin.

Yumshoq shiddatda nafas va tovush boylamlari bir vaqtning o‘zida ishga kirishmaydi hamda qat’iy muvofiqlashtiriladi. Yumshoq shiddat sekin, mayin, turtkisiz yoki nafas olish paytini, tovush boshlanishini, intonatsion tuyg‘ini ta’minlaydi. Agar o‘quvchi xiqildog‘i siqiqliqdan kutilish fikri yoki uning faollashuvi ortiqcha taftish tug‘dirmasa yumshoq shiddatdan muntazam foydalanish mumkin bo‘ladi.

Shiddatning uchinchi turi – nafas tovushi. Buning uchun avval nafas to‘rlari o‘tkazib yuboriladi va keyin tovush katlamlari sust holda qo‘shilib boradi. Bunday shiddatda tovush ko‘tarilishga moyillik sezadi. Shiddatning bu turi siqiq, hiqildoq xarakteridagi tovushlar uchun juda foydali hisoblanadi. Tovush katlamlari ishi o‘z ichiga hiqildoq orqali o‘tayotgan nafas yo‘llarini oladi. Ular tovush siqiq xarakterini qabul qilishday mahkam jipslashish imkoniyatiga ega emas. Biroq nafas tovushi shiddatini uzoq muddat ko‘llash ham zarar yetkazishi, kuylashda notaga nisbatan ko‘tarilishni yuzaga keltirishi, bundan tashqari tembr toza va ravonligini yo‘qotib, shovqinli tovushchalarni paydo qilishi mumkin. Qattiq shiddat kabi nafas tovushi shiddati ham ifoda vositasi sifatida amaliyotda qo‘llaniladi.

## 2.3. TOVUSHNING AKUSTIK TUZILISHI. XONANDALIK FORMANTLARI. YAXSHI ESHITISH DOIRASI

Musiqa tovushi dunyosida xonandalik ovoziga eng faxrli o‘rinlardan biri ajratilgan. Tovush osti akustikasida tebranishning tarqalishi, shuningdek egiluvchanlik muxiti to‘lqinlari tushuniladi. Ovoz tovushi – bu havoning chastotasi bo‘lib, zichlanish istagi va yengillashtirish turi sifatida tarqalishi hisoblanadi. Mazkur holatda tovush boylamlari bunday to‘lqinlarning yuzaga kelishida asosiy manbaa vazifasini o‘taydi. Hiqildoqda tug‘ilgan tovush to‘lqinlari hamma tomonlarga, hiqildoqni qurshab olgan to‘qimalargacha, shuningdek organizm ichiga va havo tashuvchi yo‘llar bo‘yigacha, yana og‘iz tirkishidan chiquvchi ichki kengliklargacha tarqaladi. Tovushga oid ohanglar (ma’lum balandlikka ega bo‘lgan) va shovqinlar (balandligi aniqlanmagan) farqlanadi. Tovushga oid ohanglar muntazam holda ma’lum chastota bilan tebranish hosil etgan manbaa tebranib turganda hosil bo‘ladi. Barcha unli tovushlar ohangli, undosh tovushlar esa shovqinli hisoblanadi.

Har qanday musiqiy tovush balandligi, kuchi va tembri bilan farqlanib turadi. Tovush balandligi – bu tebranma harakat chastotasini subyektiv ravishda qabul etish. Havoning davriy tebranishi qanchalik ko‘p sodir bo‘lsa, tovush ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Tovushning balandlik sifati tug‘iladigan tovush apparatining yagona uslubi odam tovush boylamlari hisoblanadi. U tug‘ilgan keyingi balandlikni organizmda o‘zgartira oladigan boshqa hech qanday mexanizm yo‘q.

Ikki to‘lqin oralig‘idagi masofa – to‘lqin uzunligi deb ataladi. Madomiki, tebranish tarqalishining tezligi bir – 342 m/sek., tebranish qanchalik ko‘p yig‘ilsa, to‘lqin uzunligi shuncha bo‘ladi. Tebranish chastotasi va to‘lqin uzunligi qarama – qarshi proporsionallikka qaramlik holatida bo‘ladi (o‘quvchilarga tushuntirish uchun uning chizmasi chiziladi).

Tovush balandligi gers (gs.) bilan o‘lchanadi. Kuylashda qo‘llaniladigan to‘lqinlar chastotasi tovush diapazonining nisbatan qisqa, quloqlarimiz eshita oladigan qismini egallaydi. Agar quloq 16 gs. dan to 20000 gs. gacha eshitsa, xonanda diapazoni 60 gs. dan to 1200 – 1300 gs. gacha tarqaladi.

Tovush kuchi – bu tebranma harakatlar tebranishini, shuningdek uning amplitudalarini subyektiv qabul etishdir. Amplituda uning chastotasiga qaram emas. Tovush kuchi ham hiqildoqda tug'iladi va boylam osti bosim kuchi ortib borishi bilan ko'tarilib boradi. Boylam osti bosimining ko'tarilishi energetik rezervuar hisoblanib, ovoz tirqishida paydo bo'lgan tovush energiyasidan oziqlanadi. Birok bu energiyaning unchalik katta bo'lmagan qismi tovushga o'tadi. Ovoz tirqishida tovush kuchi tug'iladi va keyin tez nobud bo'ladi. Faqat hiqildoqda tug'ilgan tovush energiyasining 1/10-1/50 qismigina ovoz tirqishidan tashqariga chiqadi.

Demak, bu energiyaning asosiy kismi organizmning ichida bosh, bo'yin, ko'krak pardalarida titrash hosil qilish bilan yo'qolib boradi.

Xulosa qilib aytganda, akustik energiya – hiqildoq tovushi energiyasi bo'lib, nafas va hiqildoq muskullarining natijasidir. Tajribasiz o'quvchilar past akustik samaradorlikni yuzaga keltirish uchun ham ko'p mehnat sarflaydilar. Tovush kuchi desibel (ds.) larda o'lchanadi.

Tembr xonandalik tovushining bir muncha murakkab sifati sanaladi. Tembr – tovush tarkibidagi obertonlarni subyektiv qabul etish. Tovush ohanglari boshqa musiqa tovushlari kabi murakkab tovush hisoblanib, birgina ma'lum chastotali tebranish (amplituda) lardan emas, balki turli-tuman chastotali va amplitudalarni o'z ichiga olgan bir qator oddiy tebranish obertonlardan tashkil topgan. Oddiy ranglarga oq rang tortilgani kabi xonandalik tovushining murakkab ohangini uning oddiy tarkibli tebranishlaridan terib qo'yish mumkin. Asosiy ohang ularning eng pasti hisoblanib, u tovush balandligini belgilaydi. Qolgan ohanglar qisman yoki asosiy ohang obertonlari deb nomlanadi. Ularning jarangdorlik darajasi o'ta ma'lum tembrni ham tashkil etadi.

Xonandalik tovush tembri vibratoga ham bog'liq. ***Vibrato*** – bu biz xonandalarning shirali tovushida eshita oladigan violonchel yoki g'ijjakniki kabi go'zal ohanglarning tomir urishi hisoblanadi. Nutqda vibrato mavjud emas. Agar ovoz bu sifatdan holis bo'lsa, unda to'g'ridan – to'g'ri jonsizlikka aylanadi. Agar tomir urishi juda ham kam va chukur bo'lsa, biz bu tovush tebranyapti deb aytamiz. Agar teskari bo'lsa – juda ham tez-tez va qisqa bo'lsa biz «Barra» tovushning tremolyasiyasi xaqida

gapiramiz. Tomir urishi sekundiga 6-7 marta  bo‘lsa, xonandalik tovushi to‘lakonli tembrning qismi - chiroyli ohangdorlik sifatda qabul kilamiz.

Tovush tembrini shakllantirishda burun va dimoq ichi sezilarli ta’sir o‘tkazishi mumkin. Kuylashda yumshoq tanglay tushirilsa, tovush dimoq ichi bilan keng muloqat qila boshlaydi va dimoq tovushiga aylana boradi. Tovushning burun asorati tembrning buzilishiga olib keladi va xonandalar undan kochishga harakat qiladilar.

Tebranayotgan tana energiyasining tovush tebranishiga o‘tishi *tovushning nurlanishi* deb ataladi. Akustikada kuyidagi qoidaga amal qilinadi: maydonning yuqori qismi qancha kuch bilan nurlansa, shunchalik yaxshi nurlanish hosil bo‘ladi. Insonning tovush yo‘nalishi o‘zi bilan birga o‘ziga xos karnay hosil qiladi: tebranish manbalari ustida – boylamlarda – tashqi muxitga ochilgan naychaga o‘rnatilgan.

Karnayning keng qismi – karnay ovoz chiqish tirqishiga ega og‘iz bilan yakunlanadi. Odam tovush naychasidagi ovoz karnay og‘zi rolini o‘ynaydi. Fon berish davrida og‘iz qanchalik katta ochilsa, ichki kenglikka energiya shunchalik yaxshi kiradi. Biroq kuylashda og‘izni maksimal ochish hollari juda kam uchraydi, negaki ashulani belgilovchi tovush kuchi emas, balki uning go‘zal tembri va aniq diksiyasi hisoblanadi.

Bundan tashqari og‘izni maksimal ochish hiqildoqni qo‘shilib ketish holatiga olib kelishi, tovush tirqishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va xonandalik tembrini to‘g‘ri tashkil etishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Har kaysi unli tovushlar o‘zining obertonlari tarkibida formantlar deb ataluvchi ikkita, nisbatan kuchaytirilgan chastota sohasini mujassam etadi. Har bir unli tovush xuddi shunday ikkita bosh sohaning kuchaytirilishi bilan xarakterlanadi.

Yuqori xonandalik formanti boylam ustidagi hiqildoq bo‘shlig‘ida yuzaga keladi. Past tovushlarniki 2500 – 2800 gs., yuqorisi – 3200 gs. gacha, u tovushga jonlilik, go‘zallik, qat’iylik bag‘ishlaydi. Aniq ifodalangan yuqori xonandalik formanti yaxshi ko‘yilgan ashula tovushining asosiy va muhim sifati, deb hisoblash mumkin. U har kanday tovushda, hatto bas tarkibida ham bo‘lishi mumkin. U 1934 yili V.Bartoloma tovushida aniqlangan.

Glinkaning xonandalik formanti (500 gs. ga yakin bo‘lgan) ravon, tovushning to‘liq jarangdorligi bilan bog‘liq. Usiz tovush o‘zini oqlaydi, past xonandalik

formantining kelib chiqish joyi – hiqildoqning pastki qismi va nafas olish naychalarida bo‘ladi.

Bizning eshitish qobiliyatimiz yaxshi eshitish doirasiga ega bo‘lgani uchun tovushda yuqori xonandalik formantining bo‘lishi nihoyatda zarur bo‘lib, yuqori xonandalik formanti sohasi hisoblangan 2500 – 3000 gs.li chastotani eshitishi mumkin. Bu sohaga kulokning tashqi eshitish teshigiga aks - sado beradi va shu bilan birga u bu tebranishlarni quloq pardasiga uzatadi.

## 2.4. O‘QUVCHI-TALABA TOVUSHIGA O‘QITUVCHINING TA’SIR ETISH USULLARI

Xonandani tarbiyalash jarayonida o‘qituvchi turli usullardan foydalanadi. Birinchi o‘rinda vokal eshitishni tarbiyalash va mukammalalshtirib borish nazorati bilan barcha vokal sifatlarini rivojlantirish turadi. Talabada xonandalik jarangdorligini aniq va to‘g‘ri tashkil etish hakida tasavvurni ko‘rib chiqish zarur. Ta’lim doimo musiqa materiallari - mashq, vokal va badiiy asarlar asosida olib boriladi. Muntazam to‘g‘ri tanlangan musiqiy manbaa tovushni tarbiyalaydi, mashq - bu bilim olishning asosiy vositasi. Ularni qo‘llash talabalar tovushida uchraydigan va tuzatishni talab etadigan kamchiliklarni yo‘qotish vositasi bo‘lib xizmat qilishi kerak. Ovozga sayqal berish mashqlari - mashqdan badiiy asarlarga o‘tish uchun foydali manbaa hisoblanadi. O‘qituvchi tomonidan katta odob saqlagan holda badiiy pedagogik manbaa tayyorlash talab etiladi. Manbaalarni musikiy, vokal-texnik va ijro qiyinchiliklarini e’tiborga olib tahlil etish o‘qituvchining zaruriy sifati, vazifasi hisoblanadi. Keng qo‘lamli musiqiy pedagogik manbaalar, repertuarni egallash va ularni qo‘llay bilish – pedagogik faoliyat muvaffakiyatining garovidir. Asarni muvaffaqiyat bilan ijro qilishni o‘rganish, ashula aytish usulini egallash katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi-talaba keng ko‘lamli asarlar ustida ishlash uslubini, turli – tuman repertuarlarni tezroq o‘zlashtirib olishi uchun mehnat qilishi, izlanishi kerak.

Ko‘zlangan natijada tovush sifatini tarbiyalash, ovozni ko‘rsata bilish katta ahamiyatga ega. Ko‘rgazmali qurollardan – ko‘zga ko‘rinadigan va sodda bo‘lgan kerakli ko‘nikmalarni shaxsan topish, yaratishga intilishni talab etadi. Buning uchun

o‘qituvchining o‘zi yaxshi ovozga ega bo‘lishi, pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishi lozim. O‘quvchi esa dastlab taqlid qobiliyatini ishga soladi, lekin taqlid kuylashni o‘rganish majburiy hisoblanmaydi. Masalan, Lamperti xonanda bo‘lmagan, biroq buyuk xonandalarni tarbiyalagan. Muskul usullarini ko‘rsatish va tushuntirish o‘qituvchi amaliyotida katta o‘rin egallaydi. Muskul usuli doim muayyan narsalarni qamrab, doim to‘xtata oladi yoki tovush apparatidagi ishlarning qaysidir kismini o‘zgartiradi. O‘quvchi avval nima qilishini tushunib oladi, keyin esa bu harakatlarni ashula aytish paytida tushungan holda qo‘llashga harakat qiladi. Muskul usulining qimmatliligi ham mana shundadir. Nutq orqali tushuntirish, so‘z ahamiyati – ovoz tuzilishi xaqidagi ishonchli tushunchani tarbiyalashda o‘ta muhim omil sanaladi. Ashula aytishni o‘rganishda nutq orqali tushuntirish ham muhim, chunki tovush apparati ishida kuzatuv, o‘zaro hamkorlikni tushuntiradi va vazifani, talabni bir muncha aniq tushunib yetishga imkon beradi. Lekin, tovush va muskullarni his etishni nutqiy tushuntirish har doim ham o‘zini oqlayvermaydi. Ammo, o‘qituvchi tomonidan qiyoslash, obrazli ifodalash, o‘quvchi-talabalarga tushunarli harakatlar qo‘llanilsa ijobiy natijaga erishiladi.

### 2.5. OVOZDAGI UNSURLAR VA ULARNI YENGISH YO‘LLARI

Ko‘plab xonandalar ovoz tembrida tabiatan yoki avvalgi o‘qish natijasida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar seziladi. Shu ma’noda bir muncha ko‘p uchrab turadigan, tabiiy tembrdan qochish holatiga to‘xtalib o‘tamiz. Bu eng avvalo vibrato buzilishi bilan bog‘lik kamchiliklar bo‘lib, u termolyatsiya, chayqalish tovushlardir.

Termolyasiyada vibrato juda xususiy va kichkina, u avvalo, hiqildoq ichidagi ortiqcha zo‘rikishlar bilan bog‘liq. Bu zo‘riqishlarni yengish jarayoni uzoq muddatli va hamma vaqt ham kerakli samara bermaydi, shuningdek vibrato chastotasidagi nurni bartaraf etish, uning chuqurligidagi nuqsonlariga nisbatan bir muncha kiyin kechadi.

Juda chuqur vibrato, ovozning «chayqalishi» bilan ajralib turadi. Odatda u xonandalarning muskul zo‘rikishi va toliqishi oqibatida o‘zlarining tabiiy tonusini yo‘qotishiga, keksayib borayotganlarda asab – muskul tizimidagi umumiy tonus pasayishi oqibatiga olib keladi. Ovoz chayqalishi - bu yo‘ldosh holat hisoblanib, uning

sababi jadallashishga yashiringan bo‘ladi. Xuddi mana shu holatga o‘quvchi diqqatini tortish kerak.

Ko‘ng‘iroq sifatli ovozda vibrato mavjud emas. Uning sababi bitta – hiqildoqning zo‘rikishi, siqiqligi o‘quvchi diqqatini tabiiy jarangdorlikni izlashga karatish kerak. Ammo vibrato ishlab chiqarishga qiyinchilik tug‘diruvchi qattiq ovozlar ham uchrab turadi. Bunday hollarda umuman, ravonlik va qisman ovozning titrab chiqishi ustida ishlash lozim.

Jadal kuylash – bu shunchaki qattiq, aytish emas, balki tovush apparatining ortiqcha faollik bilan ishlashidir. Jadal kuylash natijasida asta – sekin tembr o‘chirilib, vibrato buzilib, tovush qattiq tebrana boshlaydi. Uni tuzatish juda qiyin kechadi. Jadallashgan jarangdorlik zararini aniq tushunib yetgandagina biror bir natijaga erishsh mumkin. Kuch va qattiq kuylash bir xil tushuncha emasligini tushunib yetmoq zarur. Jadallashgan tovush xonanda tomonidan katta kuch sarflanganiga qaramay, tembrni yo‘qota borib, sezilarli darajada kam parvozli bo‘ladi. Repertuarni o‘zgartirish eng yaxshi vosita hisoblanib, bu xonandaning bir muncha tinch yoki elastiklik va nafislikni talab etuvchi tez asarlarni ijro etishga o‘tishi bilan bog‘likdir. His - tuyg‘uni kuzatuvchi qattiq (baqirib) aytishga undovchi asarlarni tavsiya etish, maqbul emas. Jadallikka qarshi kurashishning eng yaxshi vositasi - ravonlik ustida ishlash. U eshitish apparatini ortiqcha keskinlikdan halos etadi. Doimo tovush ashula aytish paytida yumshoq tanglayning tushishi va tovushning dimoq bilan erkin munosabatda bo‘lishiga bog‘liq. Bunday hollarda o‘quvchi diqqat-e’tiborini yumshoq tanglayni ko‘tartirishga qaratmog‘i lozim.

Tomog‘i siqiq tovushli xonandalar – milliy kadrlar uchun juda xarakterli, negaki undan an’anaviy ijro uslubida kuylashda foydalaniladi. Siqiq tovushga hiqildoqning noto‘g‘ri ishlashi sabab bo‘lib, u juda ham cho‘zilgan bo‘ladi. Bu bilan kurashishning eng yaxshi vositasi nafas tovushi shiddati hisoblanadi, biroq uni suiiste’mol qilish kerak emas, aks holda u tovush shaxobchalarini keltirib chikarishi mumkin.

Ovozdagi bo‘g‘iqlik eng avvalo ovoz boylamlarining nosog‘lom holati bilan bog‘liq. Biroq tovushdagi bo‘g‘iqlik ovoz apparati ishining muvofiqlashtirilmaganidan, hiqildoq muskullarining sust ishlashidan ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda

nafas olishni to‘xtatib turish, jarangli va portlovchi undoshlarning kattik shiddatidan foydalanish yaxshi samara beradi.

Odatda soxta intonatsiya ovoz apparati ishi va nafas olishning muvofiqlashtirilmaganidan kelib chiqadi. Yosh xonandalarda intonatsiyaning buzilishi ko‘pincha, nafas olishga to‘g‘ri yondosha olmaganlik oqibatida yuzaga keladi. Keksaya boshlagan xonandalarda intonasiyaning pasayishi muskullar umumiy holatining pasayishi bilan bog‘liq.

Kuylashda ro‘y beradigan ko‘pgina kamchilik nutqdagi nuqsonlar bilai bog‘liq. Bunday hollarda logoped yordamida davolanish lozim, chunki noto‘g‘ri talaffuz etish xonandaga badiiy asarlarni yuqori darajada ijro etish imkonini bermaydi.

## 2.6. OVOZ GIGIYENASI VA XONANDA TARTIBI

Xonandalik faoliyati barcha mehnat kabi ishlash va xordiq chiqarishda o‘zining meyoriga amal kilishni, ularni vaqt bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlashni talab etadi. Xonanda – bu eng avvalo sog‘lom, ruhiyati tetik, asablari baqquvat, muskul faoliyati yaxshi va ichki a’zolari sog‘lom inson. Ishga layoqatlilikni tiklash uchun 7 soatlik uyqu, to‘g‘ri ovqatlanish juda muhim. Xonanda so‘lak pardalarini qitiqlovchi o‘tkir taomlardan qochishi, shuningdek, o‘ta issiq yoki o‘ta sovuq ichimliklar iste’molidan o‘zini tiyishi kerak. Tunda to‘yib ovqatlanmaslik ham muhimdir. Har qanday xonanda o‘zining tashqi ko‘rinishiga e’tibor berishi lozim, chunki u sahna ko‘rinishini o‘zida mujassamlashtirishi kerak.

Organizmni chiniqtirish katta ahamiyat kasb etib, xonanda doimo sog‘lom, sahnaga chiqishga tayyor bo‘lishi shart. Shamollash kabi tez uchraydigan kasalliklar xonandaning ish meyorini uzoq muddatga buzib yuboradi.

Ashula aytishni o‘rganayotganlar, o‘zini shu kasbga baxshida etganlar spirt ichimliklar iste’moli va chekishdan o‘zlarini saqlashlari shart.

O‘quvchi har kuni ashula aytishga tayyor bo‘lishi kerak. Buning uchun ma’lum gigiyenik qoidalarga amal qilishi lozim. Tovush apparatini toliqishdan asray bilish: ko‘p gapirmaslik, ortiqcha kuylamaslik, yuqori notalarni suiiste’mol qilmaslik. Hech qachon

tayyorgarlik ko‘rmay turib ashula aytish kerak emas. Mashg‘ulotlarni shunday taqsimlash kerakki, ashula aytish bir soatdan ortmasligi shart.

***Savol va topshiriqlar:***

1. Tovushning akustik tuzilishi qanday?
2. Xonandalikda ovozlardagi unsurlar va uni qanday bartaraf etiladi?
3. O‘quvchining ovozini tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
4. Xonanda uchun ovoz gigiyenasi nima uchun kerak?

# III. Bob. AMALIY QISM

## ASARLARGA QISQACHA SHARXLAR

### “Sog‘indim”

Kompozitor Oydin Abdullayevaning **“Sog‘indim”** qo‘shig‘i (M.Mahammad-diyorova she’ri) lirik xarakterga ega. Tenor ovozi uchun yaratilgan. Ohang diapazoni birinchi oktavadagi “mi” tovushidan ikkinchi oktavadagi “re” tovushigacha bo‘lgan oraliqda kuylanadi.

Musiqiy matnda triol, punktir ritmik shakllar mavjud bo‘lgani sababli, kuyning ritmik asosiga katta e’tibor qaratish zarur bo‘ladi.

Romantik xarakterli ushbu qo‘shiq muhabbat mavzusini ifodalaydigan qo‘shiqlar singari o‘ychan, bosiq ravishda kuylash tavsiya etiladi. Baland pardalarni esa, hayqirmasdan kuylash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ushbu qo‘shiqni soprano ovoz sohibalari kuylashi mumkin.

### “Ustoz”

Kompozitor Oydin Abdullayevaning **“Ustoz”** qo‘shig‘i (M.Mahammaddiyorova she’ri) lirik-vatanparvar xarakterga ega. Tenor ovozi uchun yaratilgan. Ohang diapazoni birinchi oktavadagi “sol” tovushidan ikkinchi oktavadagi “mi-bemol” tovushigacha bo‘lgan oraliqda kuylanadi.

Musiqiy matnda sinkopaga asoslangan ritmik shakllar mavjud bo‘lgani sababli, kuyning ritmik asosiga katta e’tibor qaratish zarur bo‘ladi.

Vatanparvarlik xarakteriga ega bo‘lgan ushbu qo‘shiqni shijoat bilan kuylash tavsiya etiladi. Naqoratga olib kiruvchi avj parda uzoq davom etuvchi “re” tovushida kuylanadi. Ushbu pardaning to‘liq ovozda, baland kuylanishi uchun avvaldan nafas olish maqsadga muvofiq. Umuman olganda esa, ohangning shijoatli bo‘lishi uchun musiqiy aksentlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu qo‘shiqni bariton ovoz sohiblari ham kuylashi mumkin. Bu holat qo‘shiqqa yorqin vatanparvarlik ruhini olib kiradi. Shu yerda eslatib o‘tamiz, kompozitor Oydin Abdullayeva o‘zining bu qo‘shig‘ini 2017 yil may oyida A.Navoiy nomidagi Respublika kutubxonasida o‘tkazilgan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan

taniqli estrada xonandasi Yunus To‘rayevning kitobi taqdimotida Ustozga bag‘ishlaganligini e’lon qildi.

### “Muhabbat”

Kompozitor Oydin Abdullayevaning **“Muhabbat”** qo‘shig‘i (M.Mahammad-diyorova she’ri) lirik ko‘tarinki xarakterga ega. Tenor ovozi uchun yaratilgan. Ohang diapazoni birinchi oktavadagi “fa-diyez” tovushidan ikkinchi oktavadagi “fa-diyez” tovushigacha bo‘lgan oraliqda kuylanadi.

Musiqiy matnni to‘laqonli o‘rganib olgan xonandaga kuylash davomida kuyni ritmik improvizasiya qilgan holda kuylash tavsiya etiladi. Bunday improvizasiya chog‘ida asosiy musiqiy matndan uzoqlashmaslik kerak.

Ushbu qo‘shiqni romantik tarzda, ko‘tarinki ravishda ijro etish tavsiya etiladi. Baland pardalarni ham ovozni baralla qo‘yib kuylash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### “Mardlar qo‘shig‘i”.

Qo‘shiq harbiy vatanparvarlik  mavzusida marsh tempida yozilgan. “Re”  minor tonalligida 4/4 o‘lchovida. Qo‘shiq tenor ovoziga mo‘ljallangan diapazoni “Fa” birinchi oktavadan “Re” ikkinchi oktavagacha. Talabadan shiddat bilan ijro etish tavsiya etiladi. Birinchi bosqich talabalariga mo‘ljallangan.

### “Ona el madhi”.

Qo‘shiq “Lya  minor” tonalligida yozilib marsh tempida ijro etiladi .Diapazoni “Mi” birinchi oktavadan “Mi” ikkinchi oktavagacha. Vataniga bo‘lgan faxr iftixor, uni ko‘z qorachig‘iday asrash his tuyg‘usi tarannum etiladi. Bu harbiylar qo‘shig‘i past ovozli  tenor yoki bariton tovushi uchun mo‘ljallangan.

### “Alpomish” va Oybarchin” operasidan Oybarchin ariyasi.

Ushbu ariya soprano ovoziga tavsiya etiladi. Musiqiy rivojlanish, e-moll tonalligida kechadi. Asarning asosiy obrazli doirasi Ona Vatanga muhabbat va uning kuyidagi yengib bo‘lmas sog‘inch. Ariya ustida ishlash davomida mediumni shakllantirish va keyinchalik ovozning o‘tish tonlariga jiddiy e’tibor qaratish zarur, ularning to‘g‘ri shakllanishi bosh tonni to‘g‘ri tashkillashtirishga yordam beradi. Ariyaning sur’ati - Allegro Moderato bo‘lib, diapazoni “Sol” birinchi oktavadan, “Lya”

ikkinchi oktavagacha, ariya e-moll tonalligida yozilib, o‘rta qismi c - moll ga o‘tadi va yana C-dur dan, e -moll ga qaytadi.

**“Alpomish va Oybarchin” operasidan Oybarchin ariyasi.**

Oybarchinning ikkinchi ariyasi shaklan rivojlangan musiqiy polotnoni nomoyon etadi.

Ariya Allegro Moderato sur’atida bo‘lib, tonal reja o‘zida, e-moll ga o‘tuvchi E-dur tonalligi mutonosibligi jamlangan. Tonalliklarning almashuvini qahramonning o‘zgaruvchan harakatini nazokat bilan tasvirlaydi. Bu Alpomishga bo‘lgan muxabbat va cheksiz yolg‘izlik hissi. Ariya diapazoni birinchi oktava “Mi”dan ikkinchi oktava “Si” notasigacha bo‘lgan masofani o‘z ichiga oladi. Ariyaning ijrosi kasbiy jixatdan uyushgan vokal tovush va vokal texnik usullaridan foydalana olishni nazarda tutadi.

“**Alpomish va Oybarchin” operasidan I ariyasi**.

Ko‘kaldoshning birinchi ariyasi bas ovozi chun yozilgan. Ariyaning boshlanishi “e - moll” da so‘ngra “B-dur” reprizada esa cis – moll tonalligida keladi. Kompozitor tomonidan berilgan boshlang‘ich “Maestoso” ga qaytadi. Ariya ovoz registrlarini tekislash va bosh notalarini shakllantirishda foydalidir. Bunda badiiy obrazni yoritishga ahamiyat berish lozim. Shunda “so‘z”ning artikulyatsion jixatdan aniq va tushunarli talaffuz etilishiga yordam beradi. Ariya mazmunini yetkazishda xonandaga ifodaning samimiy va ishonchli talqiini topish zarur. Ariya diapazoni katta oktava “Sol” notasidan birinchi oktava “Fa” notasigacha bo‘lgan masofani qamrab oladi. Cholg‘u **Ko‘kaldosh** fakturasining akkordli bayoni hikoyaning izchilligiga ko‘maklashib, asarning metr ritmini aniqlab beradi. Ariyaning avji xonandaning yuqorgi “Fa” notasiga to‘g‘ri keladi. Ariya cholg‘u prelyudiyasi chap ko‘l partiyasidagi jo‘rlik foni va o‘ng qo‘l partiyasining yorqin yangrovchi oktavali passajlari bilan boyitiladi. Ariya Ko‘kaldoshning maktonchoqligi va manmanligi bilan yakunlanadi.

**“Alpomish va Oybarchin” operasidan Ko‘kaldoshning II ariyasi.**

Ko‘kaldoshning ikkinchi ariyasi bas ovoz uchun yozilgan. Ariya Allegro Moderato sur’atida “c - moll” tonalligida yozilgan. Ariya ovoz registrlarini tekislash va bosh notalarini shakllantirishda foydalidir. Bunda badiiy obrazni yaratishga ahamiyat berish lozim. Shunda so‘zning artikulyatsion jihatdan aniq va tushunarli talaffuz

etilishiga erishiladi. Ariya mazmunini yetkazishda xonanda ifodaning samimiy va ishonchli talqinini topishi zarur. Ariya diapazoni kichik oktava “Do” notasidan birinchi oktava “mi-bemol” notasigacha bo‘lgan masofani qamrab oladi. Cholg‘u fakturasining arpedjioli bayoni hikoyaning izchilligiga ko‘maklashib, asarning lirik xarakterini belgilab beradi. Ariyaning avji xonandaning yukorigi “mi-bemol” notasiga to‘g‘ri keladi. Ariya Ko‘kaldoshning Oybarchinga bo‘lgan muhabbatini, nozik ichki tuyg‘ularini tasvirlaydi.

**Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan –** Iqbol Mirzo she’ri, Avazbek Mallaboyev musiqasi. Sur’ati – tantanavor, marshona. Tonalligi – D-dur garmonik. O‘lchovi – 4/4, biroq ba’zi taktlarda 2/4 o‘lchoviga o‘tish hollari mavjud. Umumiy diapazoni – birinchi oktava “re”dan ikkinchi oktava “do”gacha. Asarning nomi hamda she’rning mazmunidan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, asarda Vatanning mustaqilligi, ulug‘vorligi aks etgan. Zero mustaqillik – eng oliy ne’mat. Shuning uchun ham asarni ijro etish vaqtida undagi matnning mazmunini har bir tinglovchiga yetkazib berish ustida ishlash lozim. Kuydagi metro-ritmik o‘zgarishlar ijroda qiyinchilik tug‘dirmasligi uchun ijrochi ma’lum ritmik mashqlardan foydalanishi mumkin.

**Shu aziz Vatan barchamizniki –** Mashrab Boboyev she’ri, Dilorom Omonullayeva musiqasi. Sur’ati – o‘rtacha, mo‘tadil. Tonalligi – a-moll. O‘lchovi – 4/4. Umumiy diapazoni – birinchi oktava “do”dan ikkinchi oktava “fa”gacha. Asar lirik kayfiyatga ega bo‘lganiga qaramay, tinglovchi va ijrochiga ko‘tarinki rux bag‘ishlaydi. Undagi g‘oya Vatanni sevish va ulug‘lashga qaratilgan. Asar diapazonining kengligi va avj nuqtalar ancha yuqori tovushlarda o‘tishi ijrochidan katta mahorat talab etadi. Punktir ritmning mavjudligi ham biroz noqulaylik keltirishi mumkin va bunda so‘zlardagi bo‘g‘imlar to‘laqonli jaranglashini ta’minlab berishga erishish kerak.

**Ozod Vatan posbonlari –** Mirpo‘lat Mirzo she’ri, Rustam Abdullayev musiqasi. Sur’ati – marshona, harakatchan. Tonalligi – c-moll, qo‘shimcha “re-bemol” tovushi esa frigiy ladini keltirib chiqaradi. O‘lchovi – 4/4. Umumiy diapazoni – birinchi oktava “do”dan ikkinchi oktava “fa”gacha. Ushbu asarda yurtimizni o‘z himoyasiga olgan haqiqiy Vatan posbonlari nomidan ularning Vatanga bo‘lgan sevgisi va ado etayotgan burchlari to‘g‘risida kuylanadi. Asarda ritmik unsurlarning ustuvorligi sezilib turadi.

Shunday ekan, uni ijro etishda ritmik xususiyatlarga va sinkopali ohanglarga e'tibor qaratish lozim. Undan tashqari, xonandadan ovoz yo'lida ko'plab melizmlar uchrashini e'tiborga olish, ularni maromiga yetkazib kuylash talab etiladi.

**O'lka** – Botir Ergashev so'zi, Musaxon Nurmatov musiqasi. Sur'ati - o'rtacha. O'lchovi – 4/4. Umumiy diapazoni – birinchi oktava "lya"dan ikiinchi oktava "si-bemol"gacha. Asar lirik kayfiyatga ega. Unda o'lkamizning tabiati, yurtimizning ravnaqi yoritib berilgan. Asar yuqori tessiturada bo'lganligi sababli uni keng ovoz diapazoniga ega bo'lgan talabaga tavsiya etish lozim.

**Vatan himoyachilari qo'shig'i** – Zamira Ro'ziyeva she'ri, Avazbek Mallaboyev musiqasi. Sur'ati – marshona. Tonalligi – f-moll. O'lchovi – 4/4. Umumiy diapazoni – birinchi oktava "fa"dan ikkinchi oktava "lya-bemol"gacha. Bu asarda Vatanimiz o'g'lonlarining mardligi, buyuk siymolarimiz ta'rifi mazmuni keltirilgan. Asarning xarakteri musiqa bilan uyg'unligi ham yaqqol namoyon bo'ladi. Kompozitor ijrochining imkoniyatlarini hisobga olgan holda uni ijro etishga qulay qilib yaratishga harakat qilgan. Shu sababdan bu asarni ushbu xarakterda ilk marotaba ijro etayotgan talabaga berish ma'quldir.

**Tinchliging asraymiz, Vatan** – Iqbol Mirzo she'ri, Avazbek Mallaboyev musiqasi. Sur'ati – tantanavor, marshona. Tonalligi – c-moll. O'lchovi – 4/4. Diapazoni – birinchi oktava "do"dan ikiinchi oktava "sol"gacha. Ushbu asarda elimizni qo'riqlovchi mardalar va yashab o'tgan qahramonlarimiz obrazlari aks etadi. Asarni jo'rnovozning xarakterga mos bo'lgan yorqin kuyi ochib beradi. Kompozitor ijrochiga qulaylik yaratish maqsadida kirish qismini u boshlaydigan tovushda yakunlaydi va ijrochi hech qanday qiyinchiliksiz asarni chuqur nafas olgan holda erkin boshlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Asarning marsh ritmida bo'lganligi tufayli unda uchraydigan kvinta bo'ylab yuqoriga sakrashlar ijrochiga biroz qiyinchilik tug'diradi.

**Yashasin qurolli kuchlar** – Ibrohim Jiyanov she'ri, Avazbek Mallaboyev musiqasi. Sur'ati – harakatchan, marshona. Tonalligi – g-moll. O'lchovi – 4/4. Umumiy diapazoni – birinchi oktava "re"dan ikkinchi oktava "lya"gacha. Ushbu asarda O'zbekiston Qurolli Kuchlarini sharaflash, o'z yurtini sevib ardoqlovchi mard o'g'lonlar haqida so'z boradi. O'zining ohangdorligi va kuyning harakatchanligi bilan

tinglovchi hamda ijrochilarga ko‘tarinki kayfiyat baxsh etadi. Asarning umumiy diapazoni keng bo‘lganligi hamda kvinta va undan ortiq intervallarga sakrashlar mavjudligi ijrochiga biroz noqulaylik tug‘dirishi mumkin. Shu sababli uni keng ovoz diapazoniga ega bo‘lgan ijrochiga tavsiya qilgan ma’qul. Ritmning ravonligi va o‘zgarmasligi esa o‘z o‘rnida ijroning erkinligini ta’minlab beradi.

**O‘zbekiston** – Munavvara Usmonova she’ri, Avazbek Mullaboyev musiqasi. Sur’ati – tantanavor, keskin. Tonalligi – g-moll. O‘lchovi – 4/4. Diapazoni – birinchi oktava “re”dan ikkinchi oktava “lya”gacha. Ushbu omil ijrochining mahoratligi va keng ovoz diapazoniga ega ekanligiga ko‘ra tavsiya etilishi lozim. Ushbu asarda mustaqil O‘zbekistonimizni yuksaklarga ko‘taruvchi, el-yurt tinchligini sharaflovchi yorqin tushunchalar aks etgan. Asarning boshidan o‘rin egallagan kirish qismi yangrashi bilanoq uning ko‘tarinki ruxda yaratilganligi sezilib turadi. Aynan ushbu qismda ijrochiga qulaylik tug‘diruvchi omillarga ko‘zimiz tushadi, ya’ni kirish qismi yakunidagi tovush ijrochi partiyasining birinchi tovushiga to‘g‘ri keladi.

**O‘zbek ofitserlari** – Salim Ashurov she’ri, Dilorom Omonullayeva musiqasi. Sur’ati – marshona. Tonalligi – c-moll. O‘lchovi – 2/4. Diapazoni – birinchi oktava “do”dan ikkinchi oktava “do”gacha. Asar millatimizning mard o‘g‘lonlari, o‘lkamiz qalqonlari bo‘lmish o‘zbek ofitserlariga bag‘ishlanadi. Ovoz yo‘lidagi punktir ritm asarga yanada keskinlik baxsh etadi. Jumlalar orasidagi pauzalar cholg‘u yo‘lidagi ritmik sur’at bilan to‘ldirib boriladi. Bu esa o‘z o‘rnida ijrochining nafas olishiga yordam beradi. Ushbu asar nisbatan o‘rta tessiturada yaratilgan bo‘lib, uning ijrosida bu xususiyat qulaylik kasb etadi. Bundan kelib chiqadiki, keng ovoz diapazoniga ega bo‘lmagan ijrochi ushbu asarni qiyinchiliksiz ijro eta oladi.

**Aziz posbonlar kuni** – Zulfiya Yunusova she’ri, Avazbek Mullaboyev musiqasi. Sur’ati – tez. Tonalligi – d-moll. O‘lchovi – 2/4. Diapazoni – birinchi oktava “fa”dan ikkinchi oktava “lya”gacha. Ushbu asar tinchliksevar posbonlarimizga bag‘ishlangan bo‘lib, Vatanimizning kelajagi yo‘lida xizmat qiluvchi himoyachilarimiz uchun yaratilgan. Asar mardonavor, serg‘ayrat kayfiyatda ijro etilishi lozim. Undagi sinkopaga ega ritmik sur’at yanada jo‘shqinlik kayfiyatini baxsh etadi. Jo‘rnovoz partiyasi esa biroz murakkabdir va asar ijrosida ushbu omil ijrochiga halal bermasligi lozim.

**Go‘zal oshyonim** – Normurod Narzullayev she’ri, Avazbek Mullaboyev musiqasi. Vals sur’atida yaratilgan. Tonalligi – f-moll. O‘lchovi – 3/4. Diapazoni – birinchi oktava “do”dan uchinchi oktava “mi”gacha. Asarda aziz diyorimizning go‘zalligi, tabiati, tinchligidan bahra olish va shukronalik tushunchalari o‘z aksini topgan. Ushbu asar ijrochidan katta mahorat va keng ovoz diapazonini talab etadi. Undagi melizmlar, kattayu-kichik intervallarga sakrash va yukori tessiturada kuylash kabi unsurlar hamda vazifalarni ustidan chiqish uchun ijrochi bor kuchi, bilim hamda ko‘nikmalarini ishga solishi lozim.

**Jangovor qo‘shiq** – Zulfiya Yunusova she’ri, Avazbek Mallaboyev musiqasi. Sur’ati – tantanavor. Tonalligi – g-moll. O‘lchovi – 4/4. Diapazoni – birinchi oktava “re”dan ikkinchi oktava “lya”gacha. Asarda harbiylarning shijoati, jo‘shqinligi va g‘ayrati aks etadi. Shoirning so‘zlari ma’nosi, xarakteri yorqin musiqa orqali o‘z aksini topgan. Ravon va aniq ritm ijrochiga qulaylik baxsh etadi. Ammo, kvinta va seksta intervali bo‘yicha yuqoriga sakrashlar bir muncha qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

**Uchqur o‘g‘lonlarmiz –** Zulfiya Yunusova she’ri, Avazbek Mallaboyev musiqasi. Sur’ati – marshona. Tonalligi – a-moll. O‘lchovi – 4/4. Diapazoni – birinchi oktava “mi”dan ikkinchi oktava “lya”gacha. Asarda Vatanimizning dovyurak posbonlari, yetuk o‘g‘lonlari va ulug‘ siymolar tilga olinadi. Asarning xarakteri musiqa bilan uyg‘unligi ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Kompozitor ijrochining imkoniyatlarini hisobga olgan holda uni ijro etishga qulay qilib yaratishga harakat qilgan. Ovoz yo‘lida sinkopalarning yo‘qligi ijrochi uchun juda qulaydir. Yuqoridagi tovushlar esa biroz qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun asarni yod olish davrida bir necha ovoz sozlash mashqlaridan keng foydalanish lozim.

**Mardlar qo‘shig‘i** – Minxojiddin Mirzo she’ri, Rustam Abdullayev musiqasi. Sur’ati – mo‘tadil. Tonalligi – d-moll. O‘lchovi – 4/4. Diapazoni – birinchi oktava «re»dan ikkinchi oktava «re»gacha. Asarda posbonlarning mardligi va O‘zbekistonimizni sharaflovchi so‘zlar aks etadi. Asar rang-barang va xilma-xil unsurlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Masalan, asar boshidagi quvnoq hayqiriqlar ko‘tarinki kayfiyatni vujudga keltiradi. Asardagi alterasiya belgilarining o‘zgarib turishi ijrochiga bir oz mashaqqat va uddaburonlikni talab etadi.

**Harbiylar qo‘shig‘i** – Iskandar Rahmon she’ri, Avazbek Mallaboyev musiqasi. Sur’ati – marshona. Tonalligi – F-dur. O‘lchovi – 2/4. Diapazoni – birinchi oktava «re»dan ikkinchi oktava «re»gacha. Asarda harbiylarning shijoati, g‘ayrati aks etadi va bundan tashqari, adolat, halollik, tinchlik kabi so‘zlarning ifodasi xarakterni ochib berishda ko‘mak vazifasini bajaradi. Sinkopali, ya’ni, notekis ritm ijrochidan mohirlik va zukkolik talab etadi. Ayniqsa, kvinta va septima intervali bo‘yicha yuqoriga sakrashlar bir muncha qiyinchilik tug‘dirgani bois, ovoz sozlash mashqlarida ularni bartaraf etish usullaridan foydalanish darkor.

**Go‘zal Vatanim** – Normurod Narzullayev she’ri, Rustam Abdullayev musiqasi. Sur’ati – tantanavor. Tonalligi – c-moll. O‘lchovi – 4/4. Diapazoni – birinchi oktava «do»dan ikkinchi oktava «sol»gacha. Asar matnida Vatanning go‘zal bog‘lari, bepoyon tog‘lari, o‘zbek xalqining bag‘rikengligi aks etgan. Shunday ekan, asarni ulug‘vor xarakterda ijro etish maqsadga muvofiqdir. Asarda so‘z va musiqaning bir-biriga chambarchas bog‘liqligi yaqqol sezilib turadi. Asarni ijro etishda ritmik xususiyatlarga va sinkopali ohanglarga e’tibor qaratish lozim.

**O‘zbekiston askarlarimiz** – Iskandar Rahmon she’ri, Avazbek Mallaboyev musiqasi. Sur’ati – marshona. Tonalligi – f-moll. O‘lchovi – 2/4. Umumiy diapazoni – birinchi oktava “do”dan ikkinchi oktava “fa”gacha. Ushbu asar matnining mazmunidan O‘zbekistonni jonidan ortiq ko‘ruvchi, uning sarhadlarini himoya qiluvchi o‘g‘lonlarning mardligi kabi ta’riflar o‘rin egallagan. Ko‘rinib turidbiki, asarning umumiy diapazoni kengdir, uni faqatgina ijroda mavjud ma’lum vazifalarni to‘la uddalay oladigan ijrochiga tavsiya etish lozim.

**Vatanni seving –** Muhammad Yusuf she’ri, Zumrad To‘ychiyeva musiqasi. Sur’ati – o‘rtacha, marsh tezligida. Tonalligi – h-moll. O‘lchovi – 4/4. Umumiy diapazoni – qichik oktava “si”dan ikkinchi oktava “sol”gacha. Asarda Vatanga bo‘lgan sevgi tuyg‘usi o‘z aksini topgan. Ushbu asarni ijro etishda ijrochiga ko‘yiladigan asosiy talab shundan iboratki, u ham pastki, ham yuqori tessiturada o‘z mahoratini ko‘rsata olishi lozim. Kuy yo‘lidagi punktir ritm ham asar ijrosi davomida biroz tirishqoqlikni talab etadi.

**Qahramonlik yarashgay –** Zamira Ro‘ziyeva she’ri, Avazbek Mallaboyev musiqasi. Sur’ati – marshona. Tonalligi – f-moll. O‘lchovi – 4/4. Umumiy diapazoni – birinchi oktava “do”dan ikkinchi oktava “fa”gacha. Asarda Alpomish kabi dovyurak siymolar va yurtimizning vatanparvar qahramonlarini ulug‘lash haqida so‘z boradi. Undagi g‘oya Vatanni ardoqlashga qaratilgan. Cholg‘u yo‘lidagi ba’zi metro-ritmik o‘zgarishlar, ya’ni duollardan triollarga o‘tish hollari ijrochiga biroz noqulaylik olib kelishi mumkin. Shunday ekan, asarni yod olish davrida ovoz sozlash mashqlari bilan bir qatorda bir necha ritmik mashqlar ham bajarish lozim.

**Asl farzandlar madhi** – Iqbol Mirzo she’ri, Avazbek Mullaboyev musiqasi. Sur’ati – marshona. Tonalligi – g-moll. O‘lchovi – 4/4. Diapazoni – birinchi oktava “re”dan ikkinchi oktava “sol”gacha. Asar mardonavor, serg‘ayrat kayfiyatda ijro etilishi lozim. Asar ritmik qiyinchiliklarga ega bo‘lganligi sababli, uni o‘rgatishdan avval asosan, ritmik xususiyatli, diksiyani yaxshilovchi ovoz sozlash mashqlaridan foydalanish darkor. Asarning kirish qismidagi jo‘shqinlik ruhi ijrochida vatanparvarlik hissini uyg‘otishda yordam beradi. Asarni ijro etishda artikulyatsiya qoidalariga rioya etish va so‘zlariga ahamiyat bergan holda kuylash talab etiladi.

# Sog'indim

Oydin Abdullayeva musiqasi
Munira Muhammaddiyorova she'ri






Ishqim charos ko'zingda,
Izhor gulgun yuzingda,
Nigohlarim izingda,
Dilbari sen ko'nglimning.

Qoshi qaro qaldirg'och,
Yetti osmon xabar soch,
Vaslingdir eng go'zal quvonch,
Dilbari sen ko'nglimning,
Ko'nglim olgan dildorim.

Sirim aytib majnuntol,
Ko'nglim g'arib, yurak ol,
Suriblar shirin hayol,
Dilbari sen ko'nglimning.

Qoshi qaro qaldirg'och,
Yetti osmon xabar soch,
Vaslingdir eng go'zal quvonch,
Dilbari sen ko'nglimning,
Ko'nglim olgan dildorim.

# Ustoz

Oydin Abdullayeva musiqasi
Munira Muhammaddiyorova she'ri




17
G'ov-lar tur-sa yo'-lin-ga ming tog' bo'-lib ke-la-di, Us-
20
toz. Us-toz, o-tang-dek u-lug',
23
har-so'-zi qut-lug', Te-pang-da por-lab tu-rar me-hr qu-yo-shi, Us-
26
toz. tut-sa qo'-ling-ni yov to'-sol-mas yo'l-ling-ni O-tang-dek u-lug'-dir Us-




Ko'kdagi quyosh kabi,
Mehrining tafti issiq.
Ko'ling intizor turgan,
Har shirin so'zi tansiq.

Dardingni his qiladi,
Qadring osmon biladi, Ystoz.
G'ovlar tursa yo'linga,
Ming tog' bo'lib keladi, Ustoz.

Ustoz,
Otangdek ulug',
Har so'zi qutlug',
Tepangda porlab turar mehr quyoshi.
Ustoz,
Tutsa qo'lingni,
Yov to'solmas yo'lingni,
Otangdek ulug'dir Ustoz.

Dakki bersa haqdir u,
Duo qilsa baxtdir bu.
Avaylang dil ganjini,
Olmang aslo ranjini.

Dardingni his qiladi,
Qadring osmon biladi, Ystoz.
G'ovlar tursa yo'linga,
Ming tog' bo'lib keladi, Ustoz.

Ustoz,
Otangdek ulug',
Har so'zi qutlug',
Tepangda porlab turar mehr quyoshi.
Ustoz,
Tutsa qo'lingni,
Yov to'solmas yo'lingni,
Otangdek ulug'dir Ustoz.

# Муҳаббат

Ойдин Абдуллаева мусиқаси
Мунира Муҳаммаддиёрова шеъри




17
ди.
Ни-го - ҳим-да-ги ши - рин ҳа - ёл,
Ха-ёл - ла-рим бе-рар бир са
О...
3
ши рин ха - ёл,
21
вол.
Уч-рар - ми-ёр, гул қал - би-га
сол,
се-ни жу-да кўр-гим ке-ла
3
бе рар са - вол.
қал би - га сол.
25
ди.
кўр-гим ке-лар, кўр-гим ке-лар


28
из-лаб се-ни ша-ҳар ке-за - ман,
Со-ғи - на-ман, қа-чон кў-ра-
кўр-гим ке-лар, кўр-гим ке-лар
31
ман.
Дий до - ри-га муш-тоқ ту-ра - ман,
Ҳей,
